


Qutbi NOSIROVA

Jannat mevalari



Akademik
Mahmud Mirzayev:

OLIMLIK BOLALIKDAN BOSHLANADI

26298

HO 2 | 2001A-921

NOSIROVA, G.
Jannat MEVA
Lati

-T.		2000	3805

2001A-921

Qutbi NOSIROVA

Jannat mevalari

TOSHKENT
«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA KONSERNI
BOSH TAHRIRIYATI
2000

QILM NASHRIYATI

tanish hisobvorn

HO 26298
2

2001	Q. Sh. N. Sh. D. K.
A	921

HO

© «Sharq» nashriyot-matbaa konserni
Bosh tahririyati, 2000.

*Sadoqat shiorim, mehnat odatim,
Bekor yurmoqlikka yo'qdir toqatim.
Nihol sulolasida yashayman abad,
Serhosil mevazor baxt-saodatim.*

Mahmud MIRZAYEV

Bu kitob taniqli olim, mashhur sahibkor, Mehnat Qahramoni, Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Mahmud Mirzayev haqida.

MUQADDIMA

Sadaqaning afzali — musulmon kishining ilm o'rganib, so'ngra boshqa birodariga o'rgatishidir.

QIRQ SO'MLIK SHOGIRD

(Rivoyat)

O'tgan zamonda bir usta yashab o'tgan bo'lib, uning ikki shogirdi o'z farzandidek bo'lib qolgan ekan. Usta ulardan biriga qirq so'm, ikkinchisiga sakson so'm maosh to'lar ekan. Qirq so'mlik shogirdga bir kuni oylik ola turib alam qilibdi: „Sherigim ikkimiz bir xil ish bajarsak, bir vaqtda

ishga kelib, bir vaqtda ketsak, nega mening maoshim kam-u, uniki ko'p?" U o'ylanib-o'ylanib so'rabdi:

— Ustoz, nega menga kam haq to'laysiz?

Usta miyig'ida kulibdi-da:

— Katta yo'lda ketayotgan hov anovi karvonni ko'ryapsanmi? — debdi.

— Ko'ryapman.

— Borib bil-chi, qayoqqa ketayotgan ekan.

Bir ozdan so'ng halloslab kelib shunday debdi:

— Ustoz, karvon Mashriqdan Mag'ribga ketayotgan ekan.

— Undan keyin-chi?

Shogird ortiq javob bera olmabdi.

Usta sakson so'm oluvchi shogirdiga: „Bor, sen bilib kel-chi, nima gap ekan“, deb buyuribdi.

Ikkinchi shogird borib kelibdi-da, shunday debdi:

— Ustoz, karvon Mashriqdan Mag'ribga turli-tuman ipak matolar va attorlik buyumlari-ni olib ketyapti. Bizdagi narxi shuncha, u to-monlarda faloncha narxda ekan, sotilgan mol-lardan faloncha foyda ko'rish mo'ljali bor ekan, qaytishda bizning bozorda uchramaydigan kam-yob mollarni keltirishni rejalabdi. Yigirma kun-lik yo'l ekan, falon oyning falon kunida qaytish ehtimoli bor ekan.

Javobni eshitgan ustoz qirq so'mlik shogirdiga qarab:

— O'zing bilan sheriging o'rtasidagi farqni sezdingmi? — debdi.

Qirq so'mlik shogird lom-mim deya olmabdi.

HIKMATLI SO‘Z

Odam dunyoga bir marta kelar ekan. Uning bu dunyodagi vazifalari juda ko‘p ekan. Farzandlik burchi, ota-onalik burchi, ustoz-shogirdlik burchi, Vatan oldidagi yigitlik burchi, ilm olish, kasb-hunar egallash va uni yurt obodligi uchun sarf etish... Bularsiz odam dunyodan quruq mevasiz daraxtdek o‘tib ketadi.

Mahmud MIRZAYEV

Qadim Toshkent ko‘chalari nomini hozirgi bolalar yaxshi bilishmaydi. Taxtapul, Tarnovboshi, Labzak, Sebzor, Oxunguzar, Janggoh, Eski Jo‘va, Xadra, Qoratosh, Beshyog‘och...

Yigirmanchi yillardagi Qoratosh mahallasi yon atrofidagi Zevak, Qo‘rg‘ontagi, Olmazor, Yalonkor va Mashrab mahallalari bilan tutashib ketgan. Bu yerning odamlari mayda hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so‘ng bu eski mahalla boshqa ko‘chalar kabi buzulib, hozirda o‘rnini muhtasham ma‘muriy binolar, o‘quvchilar saroyi egallagan.

Qoratosh mahallasining Tikonli mozor dahasida, 47-uyda bir paytlar Mirbobo, uning o‘g‘li Ibrohim, uning o‘g‘li Mirzo yashab o‘tganlar.

Mirzo Ibrohimov o‘z davrining ilmi, ishbilarmon kishisi bo‘lgan. Uning ukalari Miryahyo, Miryoqublar ham o‘ziga to‘q, tadbirkor, zamonasining ilg‘or kishilari edi.

Ichkari, tashqari hovli, boloxona — mehmonxonasi bo‘lgan. Bu xonadonda hamisha dasturxon to‘kinsochin, odamlar bilan gavjum, keldi-ketdi ko‘p bo‘lgan.

Ammo, xonadonni bir narsa — farzandsizlik qiynagan. Mirzo aka bir kuni xudoga nola qilib astoydil yolvoradi: “Ey pok parvardigor, menga shunday o‘g‘il farzand bergil, uni shunday tarbiyalayki, kelajakda katta olim bo‘lsin, avlodimning nomini baland tutsin, yurtga foydasi tegsin”.

Iltijo ijobat bo‘ldi. 1921-yil Mirzo aka xonadonida o‘g‘il tug‘ildi. Uning nomini Mahmud deb qo‘ydilar. „Men uch ona bag‘rida unib o‘sdim, hatto ularning qay biri o‘z onam ekanini esimni tanigunimcha ajratolmasdim. Negaki, ularning har biri menga birdek mehr bergan, birdek ardoqlagan, parvarish etgan. Mohira oyim, Hadya oyim, Bashorat oyim, oxiratlari obod bo‘lgan bo‘lsin“, deydi Mahmud aka Mirzayev.

HIKMATLI SO‘Z

Oilada bola tug‘ildimi, uning kelajagini o‘ylash kerak, o‘sayotgan bolaning ichki hissiyotini ota-ona kuzatib borishi, nimaga ko‘proq qiziqsa, shu tomonga alohida e‘tibor qaratmoq lozim. Iste‘dodli bolaning tarbiyasi yanada zo‘r bo‘lmog‘i kerak. Aqliy iste‘dod eng nozik, eng qimmatbaho iste‘dod. Uni asrab, avaylab tarbiyalash kerak. Chunki, iste‘dod millat boyligidir.

Mahmud MIRZAYEV

QANOTLI OTLAR

Avji yoz kunlari. To‘lin oy hammayoqni yoritib yuborgan, qilt etgan shabboda yo‘q. Ichkari hovlidagi supaning bir tomonida Hadya oyisi, bir tomonida

Mohira oyisi Mahmudjonni o'rtaga olib uxlatolmay ovoralar. Osmon to'la yulduz.

— Anuv kattasi kimning yulduzi? — so'raydi bolakay. Savol ketidan savol. „Nega yulduzlar uchadi?“, „Yulduzlarning egasi bormi?“, „Yulduz uchsa odam o'lgan bo'ladimi?“. Hali u onasi, hali bu onasi bag'riga bosib, Mahmudjonga bilganicha javob berishadi. Mohira oyisi ertak boshlaydi: „Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, qirg'ovul qizil ekan, tumshug'i uzun ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan...“ Mahmudjonga ana shunisi yoqadi. Ertakning ana shu boshlamasi aytilmasa, yo'q, bu ertak emas, deb onasini qaytadan aytishga majbur qilaverardi.

„Alqissa bir sariq dev bor ekan. Bu dev har kuni tog'dan tushib, qishloqdagi bir odamni tushlikka yeb qaytarkan. Uning makoni Sariq tog' ekan. Agar yegulik topib qo'yishmasa, u qishloqni kunpayakun qilaman, deb qo'rqitarkan.

Kunlarning birida o'zga yurtning shahzodasi sayohat qilib yurib, bu yerga kelib qolibdi. Odamlar xafa bo'lib, uni kutib ham olishmabdi. „Tinchlikmi?“ debdi shahzoda. Qishloq oqsoqoli yig'lab, voqeani aytib beribdi va: „Bugun mening qizimga navbat kelgan“, debdi. Shahzodaning ko'zi jovdirab turgan ohu ko'zli go'zal qizga tushibdi. Shu payt ostidagi ot kishnab yuboribdi. Bu ot sehrli bo'lib, yursa tuyog'idan o't chaqnar, o'ng qulog'ini burasa, o'n gaz osmonga ko'tarilar, o'zidan qanot chiqarib, sarhad bilmay uchar, chap qulog'ini burasa, o'n gaz yerga kirib ketar ekan. Ot tinib-tinchimay qishloqqa sig'maganday tipirchilab, bezovta bo'laveribdi.

Shahzoda „Qo‘rqmanglar“, debdi-yu, otning qulog‘ini burab Sariq tog‘ tomon ko‘tarila boshlabdi. O‘n gaz ko‘tarilgach, Sariq shaharga yetishibdi. Bu yerda daraxtlarning bargi, mevasi, binolar rangi, hammahammasi sariq ekan. Shu payt vishillagan bir tovush kelibdi. „Odam isi kelyapti, odam isi kelyapti“, debdi Sariq dev. Uning boshi harsang toshdek, ko‘zlari o‘radek, qo‘llari xaridek, dumining oxiri ko‘rinmas emish. Sariq tog‘ deganlari Sariq devning yerda uzala tushib yotgan tanasi ekan. Shahzoda: „Talabingdan kech!“ debdi. Dev „Yo‘q“ debdi. Shahzoda uch bor so‘rabdi. Uch bor „Yo‘q“, debdi dev. „Endi o‘zingdan ko‘r“, debdi Shahzoda va qilichini ko‘tarib, shahd bilan dev tomon boraveribdi. Osmonni yashin yaraqlatgandek, qilichning yaraq-yaraq yoritib yuboribdi. Dev shitob bilan shahzodani domiga torta boshlabdi. Shahzoda qilichini ko‘targancha devning og‘zidan kirib, qilich bilan uning ichidan tanasini ikkiga bo‘lib boraveribdi. Yigit qarasa, devning ichi butun bir shahar emish. Bir tomonda go‘zal qizjuvonlar, bir tomonda azamat yigitlar, bir tomonda qari-qartanglar, bari „Men semiz emas, u semiz“ deb turishganmish. „Hammanglar ortimdan yuringlar“, deb Shahzoda yo‘lda davom etaveribdi va qirq kecha-yu qirq kunduzdan so‘ng devning dumidan ikkiga bo‘lib, tashqariga chiqibdi. „Sizlar ozodsizlar, uy-uylaringga ketaveringlar“, debdi shahzoda devning qornidan chiqqan odamlarga.

Bunday qarasa, dev hali o‘lmagan ekan. Yana vishillashni boshlabdi. Ammo, endi bu ovoz kuchsiz chiqibdi. Shu payt shahzodaning oti gijinglab kelib, uni bir daraxt tomon undayveribdi. Daraxtning qo‘l yetmas, osmoni falakdagi sariq shoxlarida bir

sariq qush og'zida sariq tuxum olib turgan ekan. Shahzoda otga minib o'ng qulog'ini burabdi. Qanot chiqarib uchgan ot uni qush oldiga olib chiqibdi va u qush og'zidan tuxumni olibdi. „Pastga tushgach, tuxumni qattiq ez, devning joni shuning ichida“, debdi sariq qush. Shahzoda unga rahmat aytib, qanotli otida yerga tushibdi va tuxumni baquvvat mushtlari orasida siqib tashlabdi. Devdan katta maydonda churuk lattadek teri qolibdi, xolos. Shahzoda uning dumidan kesib, beliga kamar bog'labdi-da, qishloqqa qaytibdi. Omon-omonlik bo'lib, yomonlik ketibdi. Yigit qishloq oqsoqolidan qizni o'ziga so'ratibdi. Ota rozi bo'libdi. Qirq kun to'y-tomosha bo'libdi...“

Mahmudjon tush ko'rdi. Qanotli otda uchib yurganmish. Yulduzlarga yetay-yetay dermishu, qo'l uzatib ololmasmish.

— Toy! Ho', Toy bola! Doda, turing endi!

Yo'q, bu tush emas. Miryoqub amakisining tovushi. Har kuni shunday erkalatib uyg'otadi.

Bolakay irg'ib o'rnidan turadi. U ana shunday istalgan paytda uyqudan turishga o'rgangan. To'g'risi, opoqdodasi uni shunga o'rgatgan. Otasi ish yuzasidan yurtma-yurt yurib, bolaning tarbiyasi ko'proq amakining qo'lida edi. „Yigit kishi harakatchan, chaqqon, har doim shay turishi kerak. Onasining erka o'g'li bo'lib yurish bizga to'g'ri kelmaydi“, uqtiradi har doim Miryoqub amakisi.

— Qo'yliqqa ketdik! Adangiz aytib yuboribdilar. Sizga ham alohida ot tayyorlatib qo'ydim. Xohlang mining, xohlang mening ortimdan mingashing.

Tong saharda Qoratosh ko'chalarida „taq-taq“ tovush eshitiladi. Otga mingan biri qirq yoshlardagi

kishi, biri olti-yetti yoshlardagi bolakay yo'lda ketib boradi. Mahmudjonning xayolida qanotli ot uchib olib ketayotgandek bo'ladi.

— Mudramang, mudramang, lanj bo'lib qolasiz. Osmonga qarang, huv anavu Hulkar yulduzi, manovisi Tarozi, adashib qolsangiz yo'lni qanday topasiz? Ilgari Makkaga borgan odamlar yulduzlarga qarab yo'l bosishgan. Mana shu besh og'ayni yulduz sizga yo'lchi yulduz. Yana kompas degan bir asbob bor...

— Kompas nima?

— Yo'l ko'rsatuvchi asbob-da. Xo'sh, suvlarning boshi qayerda? Nega erta bilan shudring tushadi? — amaki ketma-ket savol beradi va bilganicha o'zi javob qaytaradi. Bolakayni fikrlashga, mushohada qilishga, tabiatga befarq qaramaslikka undaydi.

SHAVLA TO'YI

Mahmudjonning dadasi Mirzo Ibrohimov Qo'yliqdagi guruch zavodining direktori. Har kuni zavod ishchilar, yon atrofidagi beva-bechora, yetim-yesirlarni yig'ib shavla pishirib, ularga tarqatadi. Bugun ham shavla to'yi ustidan chiqishdi. Korxonahovlisi to'yxonaga o'xshaydi. Tumonat odam. Hamma idish ko'tarib, birin-sirin o'z ulushini olyapti. Dadasi bir qozoq kishi bilan gaplashib turardi. Mahmudjon yugurib borib, achomlab olmoqchi bo'ldi-yu, botinolmadi.

— Kel, kelaver, o'g'lim, — dedi Mirzo aka. O'g'lini bag'riga bosarkan, qozoq kishiga qarab:

— Musaboy, o'g'lingizni chaqiring, tanishib olishsin, birga o'ynab yurishsin, — dedi.

— Ertoy!

Shavla yeb og'zi-burnini shira bosib ketgan Ertoy chopib keldi-yu, po'rim kiyingan shaharlik bolani ko'rib jim bo'lib qoldi. Yong'oqdan qorayib ketgan qo'llarini orqasiga yashirdi.

— O'g'lim, bu Ertoy o'rtog'ing, apoq-chapoq, aka-uka bo'lib o'ynanglar.

So'ng dadasi Ertoyga:

— O'rtog'ingni zeriktirma, senga mehmon bo'lib keldi, — deb qo'ydi.

— Yur, biznikiga, — dedi Ertoy.

— Sizlarniki qayerda?

— Ana, ko'chaning narigi betida.

Ikkovlon shavla to'yidan chiqib yugurib ketishdi. Ketguncha bog', olmazor. Ertoy otasi bilan ana shu bog'ni qo'riqlarkan. Ular bog'dagi suvoqdan chiqmagan, tashlandiq bir binoda turisharkan.

— Voy, — dedi peshonasiga bir urib Ertoy, — onamga shavla olib kelaman degan edim, sen shu yerda tura tur.

Bola yugurib ketdi. U kelguncha Mahmudjonning nazarida bir yil o'tgandek bo'ldi. Ertoy tog'orachaning tagida shavla olib keldi.

— Tamom bo'lgan ekan, adang o'zlari yeb o'tirganlarini berdilar.

Uyning ichkarisida ko'rpaga o'ralib, quv-quv yo'talib Ertoyning onasi yotardi.

— Checha, shavla olib keldim.

— Qo'yib ketaver, — dedi onasi.

— Yur, boqqa.

Bolalar olmazor ichida qolib ketishdi. Mahmudjonning dimog'iga xushbo'y olma hidlari urilar, toza, sof havoda, kenglikda u yayrab-yayrab o'ynardi. Voy-bo', oq-qizil, taram-taram olmalar... ko'm-ko'k,

xol-xol olmalar, qator-qatori bilan saf-saf bo'lib, meni ol, degandek turishibdi.

— Hech olma qaynatib yeganmisan?

— Yo'q, qanaqa bo'ladi?

— Hozir men senga olma qaynatib beraman.

To'rtta guvala o'rtasiga qo'yilgan chelak olovdan qorayib ketgan. Ertoy uni olib ariqdagi suvga botirdi-da, guvala o'choqqa olov yoqa boshladi. So'ng olma terib kelib chelakka soldi. Qaynagan olmalarni yeya boshladilar. Mahmudjon birini og'ziga soldi-da, mazasi yoqmadi shekilli, yuzini burishtirib tashlab yubordi.

— Yoqmadimi? Bunga tuz sepib yesa zo'r bo'ladi, — dedi Ertoy. — Biz uyda hech narsa qolmagan kuni olma pishirib yeymiz. Olmachoy ichamiz.

Shunda Mahmudning Ertoyga rahmi keldi: „Uylarida hech narsa yo'q ekan-da“.

— Yur, qo'shni bog'da jo'xori bor, olib kelib pishirib yeymiz. Chechamga ham beramiz.

Bolalar bog'ning etagiga tushishdi. Ertoy „Sen shu yerda turatur“, deya yugurib ketdi-da, ko'p vaqt o'tmay qo'yni-qo'njiga jo'xori so'talarini to'ldirib qaytdi.

— Qochdik! Egasi bilib qolsa o'ldiradi!

Jo'xorilarni qo'rga ko'mib qo'ygach, „Yur, anavi yerdan yong'oq terib kelib o'ynaymiz“, dedi Ertoy. Mahmudjon yong'oq daraxtini endi ko'rishi. Yon-g'oqlar shunday qo'l uzatsa yetadigan shoxlarda osilib yotardi. Bolalar besh-o'ntasini uzib olgach, yerga ishqalab po'stini ajratishdi. Mahmudjonning barmoqlari yong'oq po'stini tozalayverib, qorayib ketdi. „Jo'xori pishgandir, — dedi Ertoy qo'rni titib, — ma, sen yeb tur, men chechamga berib kelay“.

Mahmudjon o'rtog'ining kattalarga o'xshab qilayotgan harakatlaridan uning o'zidan aqlli, mustaqil, sezgir, harakatchan ekanini payqab qoldi. Garchi otasi uning otasi qo'lida xizmatchi bo'lib ishlasa ham, mana shu xaroba kulbada yashasalar ham, onasi kasalvand yotgan bo'lsa ham, Ertoy mag'rur, o'ziga ishongan bola edi.

Bolalar kechgacha yong'oq urishtirib o'ynadilar. Bir payt Ertoyning otasi kelib, ularning holidan xabar olgan bo'lib, bo'lka non tashlab ketdi. Qorin ochganda qora non ham juda shirin tatirkan. Mahmudjon mazza qilib yedi. Olma bargidan damlangan choy ham unga g'alati tuyulmadi. Kechasi ikkovi bir o'rinda yotdilar. Faqat onaning quv-quv yo'talidan bolalar tez-tez uyg'onib ketishardi. Ertoy ham ko'p bezovta bo'lib, „Checha, choy beraymi“ deb, onasi oldida cho'k tushib o'tirib olar, o'tirgan o'rnida ko'z yumib mudrardi. Onasi yotaver desa, joyiga kelib uxlar va yana o'rnidan turib ketardi.

Tong qorong'usida Mahmudni uyg'otdilar.

— Opoqdodang, uyg'ot, deyaptilar, ketmayman degin.

Opoqdodasi ko'nmedi.

— Shaharda oyilaring ayttirib yuborishibdi. Adang bilan uchrashib, tezroq yo'lga tushish kerak.

Noiloj erta-azonda Ertoy bilan xayrlashgan Mahmudjon „Yana kelaman“ deb ketdi. Zavodda otasi kutib turardi. Dadasi bag'riga bosib: „Yaxshi o'ynadingizmi, yoqtimi bu tomonlar“, deb hol so'ragan bo'ldi-da, issiqqa qolmay tezroq boraqolinglar, deb qo'ydi.

Shaharda uni Mohira oyisi va Hadya oyisi sog'inib kutishardi. Tushga yaqin uyga kirib keldilar.

Mahmudjonga uylari yanada chiroyli, yanada fayzli ko'rindi. Ikkala oyisi atrofida girgittan bo'lib, yuvintirib kiyimlarini almashtirdilar, yong'oq po'stidan qoraygan qo'llarini sovunlab oqartirdilar. Mahmudjonning ko'ziga hovlidagi hamma narsa boshqacha ko'rindi. Gullarni aytmaysizmi, biram chiroyli, anavi gulbeor — oqish, sariq, gulnor, qizil, pistoqi — osmondan sochilgan yulduzlarga o'xshaydi. Gulira'no, qirqog'ayni, oq, qizil atirgullar hid taratib yotibdi. Sadarayhon, oshrayhon, karnaygul, itog'izgul, namozshomgul biram chiroyli, darvoqe, namozshomgul nega kunduzi yumilib, namozgarda ochiladi?

Kechqurun supada moshkichiri yeb o'tirishganda Mahmudjon opoqdodasidan shuni so'radi. Opoqdodasi kuldi-da: „Yaxshi, yaxshi, qiziqqaning yaxshi, — deb qo'ydi. — Xo'sh, o'zing bilan kechagi Ertoy o'rtog'ing o'rtasida farq bormi? Har gulning o'z isi bo'ladi, toy. Mana, Ertoy keng dalada, mehnatda, qiyinchilikda o'sgani uchun sendan ko'ra tiyrak, pishiq, baquvvat, chayir, oftobda ko'p yurgani sababli badani pishgan. Sen shaharda mana bu oyilarning bag'rida o'sganing uchun bo'shroq, pishmagansan, salga urinib qolasan. Gullar ham shunga o'xshash. Sen hadeb suv ichavermaganingdek yoki har kuni palov yeyavermaganingdek, gullar ham har xil rivojlanadi, har xil gullaydi. Seni pishitaman deb Achchimi, Qo'yliqmi, Qovunchimi, Hasanboymi, bekorga olib yuribmanmi. Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas deganlar, jiyan. Yolg'iz o'g'ilsan, seni hayotning doshqozonida qaynatish kerak“.

Mahmudjon uyquga yotarkan, yana Ertoyni o'yladi. Kelasi juma yana amakimga olib boring,

deb yolvoraman, deb ko'ngliga tugib qo'ydi va taassurotlar ostida odatdagidan tez uxlab qoldi.

Juma kuni ertalab Mahmudjon shirin uyquda yotardi. Dadasining o'zi Ertoy bilan kelib qoldi. Dadasining oyisiga: „Bolaning ko'ngliga qaranglar, onasidan ajralib qoldi, Mahmudjonga esh bo'lib o'sar“, deganini eshitib uyg'onib ketdi. Bunday qarasa, Ertoy o'rtog'i supada oyoqlarini osiltirib, xomush o'tiribdi. U sekin turib, yuz-qo'lini yuvib kelgach, otasiga salom berib, achomlashib ko'risharkan, dadasi: „Ana, Ertoy o'rtog'ingni ham o'g'il qilib oldim, birga o'ynab yuringlar“, dedi. Oyisi darrov o'rinlarini yig'ishtirib, xontaxta atrofiga ko'rpachalar soldi, shirchoy keltirdi. Gap-so'zlardan ma'lum bo'ldiki, Ertoyning onasi o'sha kuni kechqurun olamdan o'tgan ekan. „Endi biznikida yuratur, — dedi Mirzo amaki, — seni hali shahar aylantirib kelamiz, tomoshalar ko'rasan“.

Mahmudjon quvonib ketdi. Izvoshga yoki otga minib shahar aylanish maza-da!

Ular Xadraga yetganlarida dorbozlar o'yin ko'rsatishardi. Ertoy bularni ko'rib angrayib qolayozdi. Keyin qiziqchilar, masxarabozlar chiqishdi, katta ashula boshlandi. Ayniqsa, bir o'yinchi yigit chiqib, doira sadosida o'yinga tushib davrani tiz cho'kib gir aylanib chiqqanida, bolalar qolib, kattalar ham qoyil qolishdi. Qarsak bo'lib ketdi. Bir kishi qalpog'ini tutib davra aylanib yurar, hamma unga chog'iga qarab pul tashlardi. Bir payt otasi ikkoviga muzqaymoq olib keldi. Ertoy muzqaymoqni birinchi yeyishi ekan, katta bo'lagini tishlab yutib yubordi. Muzi kindigigacha erib bordi shekilli, Mahmudjon uning bu holatini ko'rib kulib yubordi.

— Aytmaysanmi muzdek deb, — dedi Ertoyning o‘zi ham kula-kula.

Bir olam taassurotlar bilan uyga qaytishdi. Ammo, Ertoyning chehrasi yana ochilmay qoldi. Opoqdodasi buni sezib uni ishga solib yubordi:

— Otlarni sug‘orib qo‘yaqol!

Ertoyga xuddi shu kerak edi. U bekorchilikdan siqilayotgan edi. Otxonaga kirishgach, u otlarning har bittasi bilan odam bilan gaplashganday gaplashib chiqdi. Ularni silab-siypadi. Qani endi meni ham otim bo‘lsaydi, otlarni juda yaxshi ko‘raman, dedi u. Ertoy shaharda siqilib qoldi. Mirzo amaki ketadigan kun „Men ham ketaman“, deb otlanishga tushdi. Hech kim uni to‘xtatib qololmadi.

GUBIRBOG‘DA

Mahmudjonni Olmazordagi Miraziz domlaga o‘qishga berdilar. Miraziz domla o‘z davrining yetuk, dindor olimi bo‘lib, uning xonadoniga Farg‘ona, Namangandan tolibi ilmlar kelar, Qur‘on va boshqa kitoblarni mutolaa qilishar, shu yo‘l bilan odamlarga iymon-e‘tiqod, ma‘naviyatdan dars berishardi.

Domlanning Mirmahkam degan yolg‘izgina o‘g‘li bo‘lib, Mahmudjon bilan apoq-chapoq bo‘lib ketgan edi. Miraziz domla Mahmudjonni suyib erkalarkan: „Sen ikkinchi o‘g‘limsan“, derdi. Domlanning Gubirbog‘ (general gubernatorning rezidensiyasi, sho‘ro davrida Kirov nomli park bo‘lgan, hozir Bobur nomli bog‘) da o‘rikzori, ishkom-ishkom uzumzori bo‘lgan. O‘rikzorga kirgan Mahmudjon u yerdan hech chiqqisi kelmasdi. Qantak o‘rik, oq o‘rik, novvot,

kalyo'ldosh, bodomiy, luchchak, subhoni, ruhi javonon, eh, o'rikzorning shunday bir yoqimli hidi bor ediki...

Domlanning xotini Zaynab opani bolalar Oyxon oyi deb chaqirishardi. Oyxon oyi cho'pchak, topishmoqqa rosa usta edi. Supada ikki yoniga Mahmudjon bilan Mirmahkamni olib yotib, cho'pchak aytib, topishmoq topish o'ynashardi.

— Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor.

— Piyoz!

— To'g'ri.

— Yer ostida oltin qoziq.

— Sabzi.

— To'g'ri.

— Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha.

Bolalar uni topisholmadi.

— Shahar berdinglarmi?

— Shahar berdik!

— Shah-a-ar, shaha-ar! Undan bordim, bundan keldim, uning nomi topdim-topaloq! Yo'q! Ha-a, topdim, anor!

Oyxon oyi shu asno ularni uxlatib qo'yardi.

Miraziz domlanning kitoblari ko'p edi. Bir kuni Mirmahkam bilan o'ynab Olmazorga borib qolgan Mahmudjon domla kitoblarini aravaga ortayotgani ustidan chiqib qoladi.

— Nima qilasiz bularni?

— Qani, yordamlashib yuboringlar-chi! Dalaga olib ketamiz.

Bolalar qop-qop kitoblarni ko'tarib chiqib aravaga ortishadi. Gubirbog'dagi dala hovlida oldi ochiq bir ayvon bo'lib, ana shu ayvonning oldidan chuqur qaziydilar. Kitoblarni qopi bilan shu yerga

200
A 011.1
981

ko'madilar. Mahmudjon katta olim bo'lganda ham Miraziz domlaning o'sha holatini, boshini eggan ko'yi kitoblarga qarab xomush xayol surib o'tirgan suratini unutmadi. Bunisi ham baharnav ekan.

Kunlarning birida domla bilan kitoblarning holidan xabar olgani yana Gubirbog'ga chiqadilar. O'sha paytlar To'qimachilik kombinati qurilishi boshlangan bo'lib, yo'llar qazilgan, loy, tuproq edi. Domla qay ko'zi bilan ko'rsinki, kitob ko'milgan chuqur bosilib, yanchilib, qo'shning o'rasi chuqur tomonga oqizib yuborilgan. Miraziz domla ko'radiki, kitoblar loyga qorilib ketgan. Domla tiz cho'kkan ko'yi birdan yig'lab yuboradi va jon-jahdi bilan loy tuproqni qo'llari bilan tita ketadi. Kitoblar nam o'tib mog'orlagan, loyga qorilgan, domla har birini tizzasiga olib, yaxtagining bari bilan ularni artarkan, ko'zidan duv-duv yosh oqardi. Yigitchalar hayron turib qoladilar. Domlaga nima deb tasalli berishni ham bilmaydilar. Mahmudjonning yuragiga vahm tushadi. Kitobni, qog'ozni xor qilmang, yerga tashlamang, derdi domla. Mahmudjonga harf tanitgan, o'qishni o'rgatgan, ilk bor qalbida kitobga mehr uyg'otgan ana shu Miraziz domla edi. Miraziz domla yana unga gunoh, savob, harom nima, halol nima, hidoyat, ma'naviyat yo'llarini o'rgatgan. U Muhammad alayhis salom hadislaridan: „Sadaqaning afzali musulmon kishi ilm o'rganib, so'ngra boshqa birodariga o'rgatisihdir“, deb ko'p takrorlardir.

„Hazrat payg'ambarimiz: „Shariat bir daraxtdur; tariqat uning shoxlari; ma'rifat — yaproqlari, haqiqat mevalari, daraxt bo'lmasa, novda ham, yaproq ham, meva ham bo'lmaydi“, deb takrorlashni yoq-

tirardi. Miraziz domla nafaqat diniy ta'lim, balki tabiiy fanlarni ham yaxshi tushuntirardi. O'rikszorga yoki ishkonga kirganda, uni bog'bon yoki olim deb tasavvur etish mumkin edi. Gubirbog'dagi uzumzor, turli-tuman uzum navlari Mahmudjonni qiziqtirib qoldi. „Mana bu qorahusayni, anavi kelinbarmoq, charos, kishmish, kadu, buvaki, daroyi, echkiemar, tog'uzum, tuyatish, chillaki“, tushuntirardi domla bolalarga.

— Narigi ishkomdagi-chi?

— Umi? Sohibi daroyi, deyiladi. Uning nomini kim qo'ygan, bilasizlarmi? — dedi-da domla bir hikoyatni boshladi.

— Navoiy bobomiz ham bog'dorchilik ishlarini yaxshi kor'rganlar. Bog'lariga Daron degan bir yigit bog'bonlik qilib yurgan. Buyuk shoirning yangilikka o'chligini bilgan bog'bon har kuni erta bilan dasturxonga yangi meva-chevalardan uzib qo'yar ekan. Bir kuni Daron bir chinni laganda yap-yangi uzilgan ikki xil uzum olib kelib, xontaxtaga qo'yadi. Navoiy bu asaldek shirin va dasturxonni bezatib turgan uzumlardan tatib ko'rib, uning qayerdan olib kelinganini so'raydi.

— Qo'shni bog'ning mevasi, — deydi bog'bon.

— Bu uzumning nomi nima ekan?

Daron javob berolmaydi.

— Bo'lmasa, — deydi Navoiy, — bu uzumning biriga sening noming bilan Daroyi, ikkinchisi shu xil uzum yetishtirgan bog' egasining nomiga taqavvul bo'lib, Sohibi, ya'ni Sohibi Daroyi bo'la qolsin.

Miraziz domla o'zi ham bog'bon, ham katta ilm egasi edi. Ana shu Miraziz domla qatag'on yillaridan o'tmishdan qolgan aziz kitoblarni ko'z qorachig'idek

asrab, omon-eson olib o'tib, Sharqshunoslik institutiga olib borib topshirganiga Mahmudjon shohid bo'lgan. Keyinchalik Mahmudjonning taniqli olim bo'lib yetishuvida ham Miraziz domlaning o'rni beqiyosdir.

Bir tup nihol parvarish etib, yetishtirgan kishidan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

Mahmud MIRZAYEV

1930— 33-yillar. Miraziz aka xonadonida bekorchilar yo'q edi. Erkaklar ko'cha ishida, ayollar uy yumushi bilan band. Bu xonadonga toklarni xomtok qilish uchunmi, bog'bonlik qilish uchunmi, Atoyosin degan bir dehqon tez-tez kelib turardi. Daroz bo'yi, gavdali, etik kiyib yurganida yerlar gursillab ketgudek bo'lar edi. Atoyosin amaki bir safar kelganida otasi unga: „Mahmudjonni olib keting, ham toza havo olsin, ham bolalaringiz bilan mehnatda chiniqsin. Mehnatdan keladigan barakani ko'rsin“ dedi.

Avji bahor. Qoratoshdan Qovunchigacha yayov ketishdi. Amakining sakkiz o'g'li, uch qizi bor ekan. Dehqonchilik qilishar ekan. Atoyosin amaki Mahmudjonni gapga solib ketdi. Bolaning burro, shahdam gaplariga ichida tahsin o'qidi. Shom qorong'usida dalaga yetib borishdi. Qorin och, uy bekasi Shakar opa go'ja osh keltirib qo'ydi. Uyda xarxasha bilan ovqatlanadigan Mahmudjon kosani birpasda bo'shatdi. O'g'il bolalar uni o'rab olishdi. Gapga solishdi.

Katta hovuz, qurbaqalar qurillab, uyqu bermaydi. Ayvonda yotgan bolalar bir-birlariga yostiq otishar, o'raga sichqon tushdi guldur gup, deydilar-da, ko'rpa

orasiga kirib ketadilar. Hiring-hiring, kulgi. Bir payt kenjasi dimiqib qoldi shekilli, ko'rpani ol, o'lib qolaman, deya xirqirab baqira boshladi.

— Hoy, nima qilyapsanlar, mehmondan ham uyalmaysanlarmi, — dedi bir mahal Shakar opa ichkaridan turib. Bolalar jim bo'lib qolishdi.

— Nechanchida o'qiysan? — so'radi bolalarning kattasi Hamid.

— To'rtinchida.

— Bironta she'r bilasanmi?

— Bilaman.

— Ayt-chi.

— E, keyin, hozir aytgim yo'q.

— Men bilaman! — Kenjatoy Anvar ko'rpa orasidan boshini chiqarib, tengdoshiga qaradi. O'z tengi oldida u o'zini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi.

Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki sen ham hur tug'ilg'onsan.

— Tsh-sh! O'chir ovozingni, birov eshitmasin. Hozir bu she'r urf emas.

— Qorong'idan qo'rqasanmi? — dedi Qo'chqor gapni aylantirib.

— Yo'q, — dedi Mahmudjon.

— Hozir shu yerdan chiqib ko'cha aylanib kela olasanmi?

— Men bu yerlarga o'rganmaganman.

— Men qo'rqmayman, — dedi yana Anvar o'rnidan dik etib turib.

— Bor, bo'lmasa, Bahromlarnikidan bir kitob olib kel-chi! Qo'rqmasligingni sinaymiz!

Anvar ayvondan tushdi-da, o'zi ham ishonar-ishonmas sekingina ko'chaga chiqib ketdi. Bolalar jim bo'lib qolishdi. Hamid Qo'chqorni urisha ketdi.

— Bor orqasidan, yarim kechada bog‘ ko‘chadan yurib bo‘ladimi?

— Qanaqa yarim kecha, endi hufton ovozi eshitildi-yu.

Anvar kelavermadi. Mahmudjonni qo‘rquv bosdi: „Qo‘rqmaganini-chi, kitob olib kela olarmikin?“

Hovlida kimdir yo‘taldi. Bolalar dik etib o‘rinlaridan turib ketishdi. Otalari ekan. Bir payt hovli etagidan Atoyosin amakining ovozi keldi.

— Anvar, sanmisan, nima qilib yuribsan?

Anvarning yig‘lamsiragan ovozi eshitildi.

— Bormabdi! Bizdan qochib o‘tirgan bo‘lsa kerak.

Bir payt otasining: „Nima bor yarim kechada“ degani eshitildi. Bir oz vaqt o‘tgach, Anvar halloslab keldi-da:

— Mana! — dedi kitobni yostiq ostiga qo‘yib. — Qo‘rqoq ekanmanmi?!

— Kim seni qo‘rqoq debdi, yashavor akang qarag‘ayni ukasi. Bordingmi-a, qo‘rqmadingmi?

— Bahrom aka supada yotgan ekan. Bor gapni aytgan edim, uyiga kirib olib chiqib berdi. Bu yog‘iga chopdim!

Bolalar shu alfozda gangur-gungur qilib, oxiri birin-sirin uxlab qolishdi.

Mahmudjon uyg‘onganda o‘rindagi bolalarning bittasi ham yo‘q edi. Hovli etagidan Shakar opaning: „Anvar, buzoqni olib kel“, deganini eshitdi. Demak, aya sigir sog‘ib bo‘libdi. Hamid, Qo‘chqor ketmon chopishar, Nurali bilan G‘anisher go‘ng tashirdi. Barcha ishning boshida otasi Atoyosin amaki turardi.

— Anvar, qo‘ylarni qo‘radan olib chiq, dalaga qo‘y, — dedi amaki.

Mahmudjon ariqdagi suvdan yuz-qo'lini yuvdi-da, nima qilishini bilmay, o'ng'aysizlanib turib qoldi.

— Hozir, hozir, ayvonga borishadi, birga choy ichasizlar, — dedi amaki. Keyin Shakar opaga qarab: „Mehmon bolaga qaranglar, qaymoq-paymoq qo'yinglar“, dedi. Mahmudjon nima qilishni bilmay Anvarning oldiga bordi va qo'ylarni birga dalaga olib chiqishga yordamlashgan bo'ldi.

— Bularni endi kechgacha poylab o'tirasanmi?

— Yo'q, o'zi o'tlayveradi, hech kim tegmaydi. Tushga yaqin bir xabar olamiz.

Nonushta ustida amaki Anvar bilan Mahmudjonga: „Sizlarni boqqa olib chiqaman, menga yordamlashasizlar“, dedi. Mahmudjonning ko'ngli yorishdi. Bolalarga hali juda aralashib ketolmagan, bekorchiligidan xijolatda edi. „Shuncha katta hovlilari bo'laturib, yana bog'lari ham bor ekan-a“, ko'nglidan kechdi uning.

Bog'da o'rik, olma, behi, olxo'ri, bir tomonda tokzor, ishkomlar taralgan, bir tomonda ko'm-ko'k beda o'sib yotibdi. Bog' etagida yong'oq, gilos, nok...

Daraxtlar ayni bo'rtgan payt. Bolalar amakiga ergashib, bog' aylanib chiqishdi. Amakining yelkasida ketmon.

— Ishni olmazordan boshlaymiz, — dedi Atoyosin amaki. — Daraxt degani nima, bilasanlarmi? — savol berdi Atoyosin amaki va o'z savoliga o'zi javob berdi: — Daraxt ham odamga o'xshash tirik jon, faqat uning ko'zini ko'rmaysiz, so'zini eshitmaysiz. Daraxtning hayoti juda murakkab. U ham gapiradi, ha, o'zining tilida gapiradi, mana, ildizini oling. Bir kunda shu ildizning o'zida qancha mayda ildizchalar paydo bo'ladi. Daraxtni o'z vaqtida

ovqatini, suvini bersangiz, ya'ni yaxshi tarbiyalasangiz, u sizga hosil beradi. Daraxtning tagida soya, salqinida dam olib o'tirgan odam qancha rohat qiladi. Negaki, daraxtlar havoni tozalaydi. Mevasi dori-darmon... Daraxtning diliga kirsangiz u ham sizning dilingizga kiradi. Uning ichki hayoti odamning ichki qon aylanishidek, yerdan suv oladi, bargga yetkazadi, ortiqcha suvni chiqarib yuboradi, ortiqcha o'g'itni ham singdirolmaydi. Daraxtga beparvo bo'ldingmi, u unib-o'smaydi, tanasi quriydi, meva tugmaydi, o'tinga aylanadi.

Mahmudjon bilan Anvarga olmalarning tagini yumshatish topshirildi. Mahmudjonning qo'li belkurak dastasiga hech qovushmas, sirg'alib ketar, ammo yerni yumshatgan sari qiziqib, sir boy bermay ishlayverdi. U bir daraxtning ostini yumshatguncha, Anvar ikki-uch daraxtning tagini chopib ulgurdi.

— Daraxtlar ham eshitadi deyman-u, — dedi Atoyosin amaki, — manavi olma ikki yildan beri hosil bermasdi, endi qirqib tashlayman desam, ko'karib, gullab, meva tugibdi. Ha, daraxtlar ham odamning qo'lini taniydi, gapini eshitadi, qo'pol odam tegsa, tanasi zirillaydi. Yaxshi odamning qo'li tegsa, yayrab-yashnab gurkirab ketadi. Qani, sizlarning qo'lingiz qanaqa ekan, ko'ramiz.

Amaki daraxtlarni bir-bir ko'zdan kechirib, yigitchalarga bog'bonchilik sirlarini o'rgatardi. Mahmudjon uchun bu gaplar yangi edi. Uning bilim olamini kengaytirardi. Bog'bonlik halol kasb, ezgu kasb ekanini shu dapqirda u qalban sezib turardi. Atoyosin amaki Mirzo aka bilan bordikeldi qilib, aka-ukaday bo'lib ketgan, shu sababli Mahmudjoni ham bag'riga olib, farzandlari qatori

ko'rib, uni o'z sevgan kasbidan boxabar etayotgan edi. Qolaversa, yolg'iz o'g'ilni mehnatga pishitayotgan edi. Zero, Mirzo aka aytganidek, bola bo'sh-bayov bo'lib qolmasin, hayotning achchiq-chuchugini tatisin, degan gapi hamon uning qulog'ida edi.

— Mevali daraxtlarning hammasi payvand qilish yo'li bilan ko'paytiriladi, — dedi amaki.

— Payvand qilmasa nima bo'ladi? — hayron bo'ldi Mahmudjon.

— Yovvoyi holda qolib, majmag'il bo'lib o'sadi, hosili mayda, taxir bo'lib qoladi, ko'chatlar ko'proq kurtak payvand qilish yo'li bilan ko'paytiriladi.

Amaki bolalarni chaqirib, payvand qilishga tushdi. U bir olma payvandtagi oldiga borib, yer yuzidan ikki-uch qarich balandlikdagi yon shoxchalarini o'tkir tok qaychida qirqib tashladi, latta bilan artdi, yon atrofidagi kesaklarni olma ostidagi chuqurlikka tushirar ekan, amaki:

— Endi daraxtni yaxshilab sug'orish kerak, — dedi.

Mahmudjon bu ishlarga qiziqib qoldi.

— Nega sug'orish kerak?

— Ana shunda daraxt tanasida suv yurishi va po'stloqning ko'chishi tezlashadi. Yer yetilishi bilan kurtak payvand qilishga shoshilish kerak. Payvandlangandan keyin ko'chat yana bir marta sug'oriladi.

— Kurtakni tutgan-tutmaganligini qanday bilsa bo'ladi?

— Oradan o'n-o'n ikki kun o'tgandan so'ng tekshirib ko'rasiz. Tutgan kurtakning barg-bandi qo'l tekkizish bilan yerga tushib ketadi. Tutgan kurtak ko'kishroq bo'ladi, tutmagan kurtakning barg-bandi kurtakka yopishib qurib qoladi.

Shu kuni Mahmudjon bog'dan ko'p taassurotlar va yoqimli mehnat zavqi bilan qaytdi. Kechqurun ish yana qizigandan qizirgan. Bu xonadonda hamma baravar ishlarkan. Qo'ylarni daladan olib kelib, qo'raga qamash, mollarni sug'orish, oxurga beda solish, yem berish. Anvarning bu ishlarni bilib-bilib bajarganini ko'rib Mahmudjon hayron bo'lib o'tirdi. Bir qozon moshxo'rda egalarini poylaydi. Hech kimning dastruxon atrofiga kelishga vaqti yo'q. Shakar oyi sigir sog'ish bilan ovora. Bahrom, Qo'chqor bedapoyada pichan o'rishyapti. Mahmudjon qorni ochgan bo'lsa ham bildirmay ot bilan ovora.

— Qorning ham piyoz po'sti bo'lib ketgandir, o'g'lim, mening uyimga „hech ishi tugamasin“ deb duo ketgan. Bir ish tugasa, ikkinchisi qaynab chiqaveradi.

Yugurib-yelib Shakar oyi Mahmudjonning ko'nglini oladi. Nihoyat, oila a'zolari dasturxon atrofiga to'planishadi. Mehnatning noni shirin bo'lar ekan, Mahmudjon dasturxon ustida shuni sezdi.

— Bugun mehmonni ham ishga soldik, — dedi amaki, so'ng, — zehning yaxshi, faqat mehnatdan qochmasang bo'lgani, mehnat sendan qochsin, uni quvaver, — deb qo'ydi. Mahmudjon beldastadan qabargan va qip-qizarib ketgan kaftlari achishayotganini, charchaganini sezdi.

Mahmudjon dalaga kelgan kunining oltinchi kuni amaki:

— Zerikmadingmi, o'g'lim, seni ortiq urintirib qo'ymadikmi, qara, to'rt-besh kun ichida yuzingga

qon yugurib, ranging tozaribdi, hali uyga borsang tanimay qolishsa-ya, — dedi hazillashib.

Mahmudjonning uyga ketgisi keldi. Uyni sog'in-dim demasa-da, amaki buni sezdi.

— Ertaga tong saharda Hamid bilan ketasizlar, otning egar-jabdug'ini tayyorlanglar, — dedi amaki.

Hamid ham shaharga tushishidan xurdand bo'lib ketdi.

Erta bilan esa havoning avzoyi buzila boshladi. „Ketaveramiz, tosh yog'armidi“, dedi yo'lga otlangan Hamid.

— Obbo, hali yomg'ir quyib, daraxtlarga shira tushmasaydi, — to'ng'illaydi amaki, — ja quyib yuborsa, biror pana joyda tura turinglar.

— Hoy, yo'lga mana bu nonni ola ketinglar, ham yo'ldosh, ham och qolsalaring... — dedi Shakar oyi. So'ng Mahmudjonni quchib: „Oyilaringga salom ayt, pishiqchilikda kelishsin“, deb qo'ydi.

Yigitchalar endi bir chaqirim yurgan edilarki, yomg'ir quyib yubordi. Allaqayerda momoqaldiroq gumburladi. Yashin bir yalt etib o'tdi. Bolalar ot choptirib ketaverdilar. To'nning barini boshlariga yopib oldilar. Ko'prikka yaqinlashganda, osmondan chelaklab quygandek yomg'ir yog'ardi.

— Hov, anovi somonxonaga yetib olsak, — Hamidning ortidan otga mingashib olgan Mahmudjondan sado chiqmadi. Uning eti junjika boshlagan edi. Somonxonaga yetganlarida besh-olti kishi u yerda yomg'irdan panalab turardi. Ular orasida oppoq jujundan ko'ylak-shim kiygan po'rim bir yigitchaga ko'zlari tushdi.

— Juda yupun kiyinibsiz, jo'ra, — dedi qora to'nini boshiga ilib olgan yigit.

— E, shahardan chiqqanimda havo yaxshi edi, kim biladi bunaqa aynishini, to‘y bor edi, dadam tong saharda oshga yetib kel devdilar.

— Kimnikiga boryapsiz?

— Mahamat qovunchinikiga.

— Ha, Mahamat bujurnikigami?

— Hm-m, o‘g‘lini sunnat to‘yi.

— Bahor havosiga ishonib bo‘lmaydi, juda yupun kiyinipsiz-da, jo‘ra.

— Havo ochilgandek bo‘ldi. Ketaveramiz, — dedi Hamid.

Yana yo‘lga tushdilar. Mahmudjonning eti uvisha boshladi. „Tezroq yetsaydik“. Shunda uning yodiga oyisining „Qanotli otlar“ ertagi tushdi. Otning o‘ng qulog‘ini burasang-da, uyga yetib olsang. Afsus, bu ertak edi-da.

Yana havo aynidi. Shunday tepalaridagi osmon yorilib tushgudek qaldir-quldur ovozdan Mahmudjonning yuragi yorilayozdi. Yashin chaqnadi. Va qayerdadir juda qattiq ovozda qarsilladi.

— Yashin tushdi. Shu yaqin oraga tushdi-yov, — dedi Hamid. — Ishqilib xonadonga emas, dalaga tushgan bo‘lsin-da. Yashin oq narsaga o‘ch bo‘ladi, oq narsaga yashin tushadi.

— Biror yerda yomg‘ir tinguncha to‘xtab turaylik, — dedi Mahmudjon.

— Shu yaqin orada chayla bor edi, — dedi Hamid.

Egasiz hovliga keldilar. Otni bostirmadagi ustunga boylab, o‘zlari ayvonga kelib o‘tirdilar. Ayvonda yana ikki-uch kishi bor edi. Yomg‘ir shaqirlab quyar, pufakchalar yasar, ariqlar to‘lib-toshib oqardi.

— Kun bo‘yi tinmasa-ya, — dedi o‘tirganlardan biri.

— Tinadi, xudo xohlasa tinadi, ana osmonning tagi yorishib kelyapti, — dedi Hamid. So‘ng: — Qorning ochdimi, ma ol, yeb turaylik, — dedi. Piyozli non og‘ziga shirin tatidi-yu, ammo yutishiga kelganda tomog‘i og‘riyotganini sezdi Mahmudjon.

Shu paytda dala tomondan bir otliq ko‘rindi. Keldi-yu, egnidagi jiqqa ho‘l bo‘lib ketgan to‘nini yechib:

— Voh-voh, xudo asradi, xudo asradi, — deyaverdi.

— Jiqqa ho‘l bo‘psiz-ku!

— Bo‘lish ham gapmi, xudo asradi. Yashin tushganini bildilaringmi?

— Ha, kelayotganimizda yaqinimizda yashin tushgandek bo‘ldi, — dedi Hamid.

— Ha, yo‘ldagi somonxoma bor-ku, ana o‘sha yerga yashin tushdi, oppoq kiyingan bir yigitni yashin urib ketdi.

— Voy, biz ko‘rgan edik uni, — deb yubordi Mahmudjon, — to‘yga ketyapman, devdi.

— Ajal haydab borgan-da. Odam ko‘mirga aylanib qolarkan. Hamrohlari yig‘i-sig‘i bilan o‘rab-chirmab olib ketishdi. Men otni sal oldinroq qamchilab qolgan ekanman-da. Bir xudo asradi, — dedi boyagi kishi. Mahmudjonga bu voqea qattiq ta‘sir qildi. Tomog‘i og‘riyotgani, eti uvishayotganini ham unitdi. Bir odam hozir bor edi, endi butunlay yo‘q, bechora, kimning o‘g‘li, uyidagilari xabar topdimikin, ko‘ngli yumshab, burni achishib yig‘lagisi keldi Mahmudjonning. Tezroq uyga yetsaydi.

Asrga yaqin yo‘lga tushdilar. Havo endi ochilib ketgan, yo‘l ham yaqin qolgan edi.

Uydagilar uni girgitton bo'lib kutib olishdi. Otasi ham uyda ekan. Oyisi yuvintirib, issiq kiyimlar kiygazib bo'lgach, bolalar oldiga ovqat olib keldi. Novvot choy qilib berdi. Yo'ldagi yashin va oq kiyingan yigit voqeasi hammani achintirdi. Hadya oyisi bolasi eson-omon oldiga kelganiga shukronalar aytdi. O'g'lining tomog'ini paxta bilan o'rab, qo'y yog'idan piyozdog' qilib issiq holda yuttirdi. Mahmudjon mazza qilib terlab uxlab qoldi.

OPOQDADA

*Hozirgi ba'zi maktab o'qituvchilari
hayot qonunlariga e'tibor bermaydilar.
Bolalarni o'z ortlaridan ergashtirib keta
olmaydilar.*

Mahmud MIRZAYEV

Toshkentliklarda amakini opoqdoda deyish odati bor. Mahmudjonning hayotida Miryoqub amakisi — opoqdadasining o'rni benihoya katta. Uni hayotda toblashda, dunyoqarashini kengaytirishda, qiyinchiliklarni yengishda, hayotga sezgir, hushyor boqishga va nihoyat, elga taniqli olim bo'lib yetishishda opoqdadaning sa'y-harakatlari sabab bo'lgan, albatta.

Eski Jo'vadagi Koppon bozorida Miryoqub amakining gazlama do'koni bor edi. Opoqdadasi Mahmudjonni o'zi bilan doimo olib yurar, bu do'konga u tez-tez kelib turardi. Balki amakisi uni savdo-sotiqqa ham pishitmoqchi bo'lgandir. Koppon bozordan Karvonsaroyga boraverishda bir tashlandiq hovli bo'lib, uni Turkistonning turli tomonlaridan

ochlik tufayli kelib qolgan odamlar makon qilib olgan edilar. Bu yerni Vatan qilib, tirikchiliklari bozordan o'tib turardi.

1930—33-yillar. SSSR deb atalmish mamlakatda qurg'oqchilik bo'lib, ocharchilik boshlangan. Ey o'quvchimiz! Siz 70—80 yoshli buvangizdan so'rang, bu davrni ular yaxshi bilishadi. Bu davrda yashab o'tgan avlod Lenin to'ntarish davrini (Sho'ro hukumati buni inson taqdirini o'zgartirgan buyuk inqilob deb atagan), boy va o'rtahol kishilarni quloq qilish, ya'ni kambag'alni boyga qayrab, boylarni uzoqqa surgun qilib, kollektivlashtirish deb nom olgan kolxoz-sovxozlar tuzish davrini, nihoyat ocharchilik yillarini, millatning eng sara, iste'dodli, bilimdon kishilarini vaqti-vaqti bilan qamab turish, ya'ni qatag'on yillarini boshlaridan o'tkazganlar.

Mahmudjon ham xuddi ana shu davrda yashab, o'sayotgan yigit edi. Yaxshi ham u mehnatkash, zahmatkash, oddiy dehqon, bog'bonlar orasida o'sdi. Bunday odamlardan yaxshilik, mehr ko'rdi. Ana shularning biri uning opoqdadasi edi.

— Hayotda har qanday qiyinchilik bo'lishi mumkin. Nonni „nanna“ deb yurgan vaqting o'tdi, yur, seni karvonsaroyga olib boraman.

Opoqdadasi bir kuni Mahmudjonni o'sha devorlari tushib ketgan tashlandiq hovliga boshlab bordi. „Non, non, non bering“ deb tilanchilik qilardi bolalar. Kir-chir, qora-qura, yupun kiyingan bolalarni ko'rib Mahmudjonning yuragi achishib ketdi.

— Mana bu hayotni ham ko'rib qo'y, — dedi opoqdadasi.

Bir kun olib bordi, ikki kun olib bordi, uchinchi kun uyning ichiga olib kirdi. Qorong'u, zax xonada

bolalar cho'zilib yotar, kirgan kishiga „non“ deb qo'l cho'zishar edi. Mahmudjonning ko'zi onasining mammasini mahkam ushlab olgan chaqaloqqa tushdi. Ona qimir etmas, bola onaning goh u mammasiga, goh bu mammasiga yopishar, og'iz solar, sut chiqmaganini ko'rib, chirillab yig'lar edi. „Nega onasi miq etmaydi“, hayron bo'lishdi. Borib ko'rishsaki, ona o'lib yotgan ekan. Ana shu ona-bola qiyofasi Mahmudjonning yodida mangu qoldi. Oradan ko'p o'tmay qattiq yomg'ir yog'ib, zilzila bo'lib, ana shu tashlandiq imorat bosib qoladi. Ostidagi barcha bolalar, odamlar qolib ketishadi. Buni ko'rgan opoqdadasi: „Ha, bechoralarning ohi xudoga yetibdi, bu dunyoda shu alfozda qiynalib yurguncha, bir yo'la jonini olibdi-qo'yibdi“, deb qo'ydi.

Mahmudjonni guzardagi to'rt yillik maktabdan olib, Miroboddagi temiryo'l maktabiga berdilar.

Bir kuni dars ketayotgan edi. Mahmudjonning orqasidagi partada o'tirgan bola unga sira tinchlik bermadi.

— Sen kitobni ko'p o'qiysan, Mahmudjon, aytib ber-chi, filolog kimu, filosof kim?

O'qituvchi Mirjalil aka doskaga yozar va o'quvchilarga bir yo'la yozganlarini tushuntirib borar edi. Karim ham baralla Mahmudjonni gapga solar edi. Mahmudjon ham bo'sh kelmasdi.

— Filolog bu til va adabiyot sohasini yaxshi biladi, filosof hamma sohani yaxshi bilishi kerak. Filosofiya fanlarning onasi...

Shu payt Mirjalil aka sekin keldi-da, doskaga orqasini o'girib, o'rtog'iga yuzlanib o'tirgan Mahmudjonning qulog'idan cho'zdi.

— Bu nima, quloqmi?

Mahmudjon qip-qizargancha o'rnidan turdi.

— Qani, hozir aytganlarimni tushuntirib berchi?

Tabiiy, Mahmudjon chalg'ib, hech narsa deyolmadi.

O, Mirjalil aka, qanday qattiqqo'l edi. Hozir bunday o'qituvchilar qoptimi! Bu geografiya o'qituvchisi doskaga teskari qarab turib, ko'rsatkich tayoqda xaritadaagi istalgan davlatni ko'rsatib, chegaralab berar edi. Bolalardan ham shuni talab etardi. Mana hozir ham Mahmudjonni yarim kechasi uyqudan uyg'otib, falon davlatni chegaralab ber desa, ko'z yumib aytib bera oladi. Negaki, Mirjalil aka bilimni ana shunday toshga o'yilganday qilib yodida qoldirgan.

Eng sevgan o'qituvchisining Mahmudjonga bergan dashnomi katta dars edi.

Bir kuni Mirzo amaki kasal bo'lib qoldi. Ishga borolmadi. Mahmudjonni chaqirib:

— O'g'lim, mana shu hisobotni falon idoraga tashlab kel, otam betoblar, degin, — dedi.

Yigitcha velosipedini mindi-da, otasi aytgan idoraga bordi. Hisobot yozilgan qog'ozni beraman deb qaraydiki, yo'q. Yo'lda tushib qolganmi, osmonga uchib ketmagandir. Mahmudjon qo'rqib ketadi. Ortiga qaytib yo'lni izma-iz qarab chiqadi. Qidirmagan joyi qolmaydi. Nima qilsin. Otasiga aytsa... yo'q, yaxshisi to'g'risini aytaveradi.

Shom qorong'usida kirib kelgan Mahmudjonni onasi koyiy ketdi: „Dadang xavotir olib o'tiribdilar-a, qayerlarda yuribsan?“

Otasi indamadi-yu, ammo: „Boram, birov senga vazifa topshirsa, puxta bajarishga o'rgan, pala-partish ish qilma, unda tuturig'ing qolmaydi“, dedi. Shu gapning o'zi yetarli edi Mahmudjonga.

Haytovur kechga yaqin bir kishi topib olgan ekan, hujjatni olib kelib beradi. Mahmudjonning dili yorishdiyu, ammo, otasining tanbehi bir umr unga saboq bo'ldi.

Kunlarning birida mahalla bolalari ikki guruhga bo'linib, „kim zo'r“ o'yini o'ynadilar. Qizishib ketgan Mahmudjon ham o'rtoqlari tomonga o'tib o'ynadiyu, uyga ko'ylagi yirtilib qaytdi. Oyisi o'g'lini ko'rib vahimaga tushdi.

— Voy, o'lay, kim bilan yoqalashding? Ko'ylagingni kim yirtdi?

— Jangda o'rtoqlarimni himoya qildim.

— Qanaqa o'rtoq? Adang ko'rsalar bormi?

Mahmudjon sekingina borib yuvinmoqchi bo'lgan edi, yo'q, otasi hammasini bilib turgan ekan.

— O'g'lim, bilib-bilmay har qanaqa janjalga aralashaverish yaxshilikka olib bormaydi. Sen shunday o'rtoqlar topginki, ular umrbod sen bilan bo'lsin, — dedi dadasi.

Bu o'g'itlar yigitning yodida umrbod saqlanadi.

KIM BO'LSAM EKAN?

Mahmudjonning ovozi do'rillab qoldi, mo'ylabi savza urdi. Hademay maktabni bitiradi, orzu-havaslarini ko'p. Bog'bon bo'lsamikin, olim bo'lsami-

kin, dadasi, opoqdadasi kabi ishbilarmon bo'lsa-chi! Bittayu-bitta o'g'il axir. Opa-singlisi o'z yo'liga. „Bitta bo'lsa ham mintaga tatiydi“ degan naqlni Mahmudjon ko'p eshitgan. O'zi ham xuddi shunday o'g'il bo'lish orzusida. Qo'lidan kitob tushmaydi. She'r o'qishni yaxshi ko'radi. Maktabdagi kechalarda faol qatnashib, shirali ovozi bilan she'rlar o'qiydi.

„Go'zallik nimada“. G'ofur G'ulomning bu she'rini u dilida ko'p takrorlab yurardi. Hamid Olimjon, Oybek she'rlari. Dadasi ular bilan tanish-bilishchiligidan so'zlaydi. Bir kuni baland bo'yli, yelkador, ovrupocha kiyingan bir kishi kelib, otasi bilan yo'lakda turib, bir nimalarni so'zlashdi.

— Marhamat, ana, bolxona sizlarniki, kelib bemalol shu yerda majlis qilasizlarmi, she'rxonlikmi, o'tkazaveringlar, — dedi otasi.

— Dada, bu kishi kim?

— I-ye, tanimadingmi, G'ofur G'ulom shu kishi bo'ladilar.

— Iy-y-y... nega aytmadingiz, tanishib olardim.

— Hm, endi ular kelaverishadi. Mana shu bolxona — mehmonxonani ularga berdim. Shu yerda yig'ilishib turisharkan endi. Asta-sekin tanishib olaverasan.

Haqiqatan uch-to'rt kun o'tgach, besh-olti kishi bilan G'ofur G'ulom kirib keldi. Miryoqub amakisi kutib oldi. Boloxonaga joy tayyorlashga yordam berayotgan Mahmudjon ular oldida o'ng'aysizlanar, o'zicha har xil savollar bergisi kelar, she'r qanday qilib yoziladi deb so'ramoqchi bo'lib, og'iz juftlar, so'ng botinmay yana yumush bilan o'ralashib ketar edi.

Ayvonda o'tirgan opoqdadası hovlida xizmat qilib yurgan Mahmudjonni imlab chaqirdi.

— Qani, o'tir-chi, jiyan. Xo'sh... — gap boshladi opoqdadası. — Bu odamlar, bilasanmi, kimlar. Ular xudoning nazari tushgan, elning eng taniqli farzandlari, millatim, Vatanim deb yurgan fidoyi insonlar. Agar qo'y so'yib chaqirganingda ham kelmaydigan odamlar. Bizning dargohga kelishni Olloh ko'ngillariga solgandirki, o'zlari kirib kelishdi.

Mahmudjon opoqdadasining gapi nishabi qayoqqa qarab ketayotganini sezdi. Amakisi oilasidan, avlodidan faxrlanib so'zlardi.

Opoqdada ulfatchilik, mehmondorchilikni juda yaxshi ko'rar, uning sir-asrorlarini Mahmudjonga o'rgatardi.

— Mehmon kutish ham san'at, — deydi u, — uyga kelgan mehmonga eng avvalo salom ber. Ochiq chehra bilan kutib ol. Kattalar qo'l bermasa, sen avval qo'l cho'zma. Kelgan odamning avval qo'lga suv quy, sochiq tut, o'tirgach, kavshandozga kovushini artib chiroyli qilib qo'y. Mehmondorchilikda yuqoriga o'tirma. Joyingni bilib o'tir. Quyida o'tirsang, xizmat-pizmat bo'lsa, tez turishingga oson bo'ladi. Kattalarning suhbatiga quloq sol. Bo'larbo'lmas gapga aralashma. Yigitchilik — itchilik, harom-harish, aroq-paroqdan parhezda yur, mehnatdan, halollikdan kelgan barakani o'zing ko'rib turibsan.

Mahmudjon tarbiyaning bu jihatlarini oilasida eshitibgina qolmadi, balki amalda ham ko'rdi. Buva-buvisi, ota-onasi, amaki-kelinoyilarida ko'rdi, o'zbek xonadonidagi eng yaxshi fazilatlar ichida unib o'sdi.

Bir kuni kechki payt boloxonadan tushayotgan G'ofur G'ulom:

— Hoy, yigitcha, buyoqqa kel-chi! — deb chaqirib qoldi.

Hayajonlanganidan nafasi og'ziga tiqilgudek holga kelgan Mahmudjon uning oldiga kelib, salom berishga tutilib qoldi.

— Oting nimaydi?

— Mahmudjon.

— Yugurib Beshyog'ochdagi magazinga chiqib kelmaysanmi?

— Mayli.

Mahmudjon do'konga borib kelguncha nimalarni o'ylamadi. Kimsan G'ofur G'ulom bilan gaplashdi-ya. Anavi yon daftariga yozib yurgan she'rlarini ko'rsatsamikin. E-e, ular she'rga o'xshaydimi o'zi. Yo'q, yaxshisi ko'proq she'r yozadi-da, katta daftarni to'ldirib, bir kuni shularni ko'rib bering, deb G'ofur G'ulomga tutqazadi. Agar shoirning o'zi she'r yozasanmi, deb so'rab qolsa-chi?

Shu xayolda u qanday borib kelganini ham bilmay qoldi. Zinadan boloxonaga ko'tarilarkan, u yerdagi shodlik, qahqahadan xona larzaga kelayotgandek bo'lardi. Mahmudjon eshikdan kirdi-yu, jim turib qoldi. Savlatli bir kishi she'r o'qir, uning qo'l harakatlari, ovozi sehriga turgancha qotib qoldi Mahmudjon. Qo'lidagi narsani uzatsa, ana shu sehr yo'qolib qoladigandek edi. Nihoyat she'r tugadi. Ofarin, dedi ulfatlar. Mahmudjon qo'lidagini G'ofur G'ulomga berdi. "Yashavor, rahmat", dedi shoir. Mahmudjon bu rahmatdan ko'ngli tog'dek ko'tarilib tushdi. Qani endi ular bilan birga o'tirsa. Shu

bahslarga, she'rxonlikka qo'shilsa. Lekin yosh yigitdagi bu intilishni kattalar sezmadilar.

Kechasi bilan Mahmudjon ajriqqa ag'anagandek uxlolmadi. Uning she'r yozgisi kelardi. Xayollari tutqich bermas, miyasida ikki satr she'r yozib, fikrlari g'ujg'on o'ynab, chalg'ib ketardi. Nihoyat u azot turib chiroqni yoqdi. Qalam olib yostig'i ostiga qo'ydi. Agar misralar quyilib kelsa, tez-tez yozib olmoqchi bo'ldi. Uzoq vaqt uxlolmadi. She'r ishqi yondirardi uni. Ana u, katta shoir. Minbarda turib she'r o'qiyapti. Ana, uni olqishlayaptilar. Ana G'ofur G'ulom. „Yashavor“ deya qo'l silkiyapti. Otasi, onasi, amakilari u bilan faxrlanishyapti. Shu xayollar bilan qanday uxlab qolganini bilmadi u.

Tush ko'rdi. Gazetada bir sahifa she'rlari bosilayotganmish. Boloxona bosmaxona emish. G'ofur G'ulom undan she'r so'rayotgan emish. "She'rlaring gazetada chiqadi" der emish. Ertasi maktabda Mahmudjon xayoliga kelgan misralarni bir-bir eslay boshladi. Yon daftarining bir chekkasiga quyidagi satrlarni yoza boshladi.

Vijdoni pok odam qul bo'lmas aslo,
G'iybat gulxanida kul bo'lmas aslo.
Mehnatsiz topilgan javohir, gavhar
Jilo berganda ham gul bo'lmas aslo.

Darsda uning qulog'iga hech narsa kirmadi. U kun bo'yi ana shu misralar ta'sirida yurdi. "Shu bugun G'ofur G'ulom kelsa, unga o'zim o'qib beraman" deb diliga qat'iy tugib qo'ydi. Afsuski, shu kuni shoirlar kelishmadi.

Mahmudjonning es-hushi she'r yozish bo'lib qoldi. Dasturxon ustida ham, yumushlarni bajara-

yotganda ham xayolida she'r. Ba'zan oyisining gaplari ham qulog'iga kirmaydi. „Hoy, es-hushingni yig‘, nega xayol suradigan bo‘lib qolding?“ deya onasi tanbeh bergani-bergan. Unga opoqdadasi „hozir buning tushiga qizlar kiradi-da“, deb hazillashib qo‘ydi.

Kechasi yana mijja qoqmadi. Oyning shu'lasida oppoq oqlangan devorga qalam bilan xayoliga kelgan misralarni yozib qo'yaverdi. „Bugun she'rni albatta G'ofur G'ulomga o'qib beraman“. Har safar shunday deydi-da, keyin botinolmaydi.

Nihoyat, ota-onalari, qarindosh-urug'lari uning bu siridan ogoh bo'lishdi. Oilada Mahmudjon maktabni bitirsa u kim bo'ladi degan gap tez-tez tilga olinadigan bo'lib qoldi. Opoqdadasi Mahmudjondan so'radi:

— Xo'sh, toy, kim bo'lmoqchisiz?

— Shoir bo'lgim keladi, — dedi Mahmudjon.

Uning nazarida hozir opoqdadasi uni mahkam bag'riga bosib „yasha, tabriklayman, bizning avlod-dan ham bir shoir chiqsin“ deydigandek edi.

— Yo'q, — dedi amakisi, — uka, shoirlikning nonini yeyish ayniqsa, hozirgi davrda oson emas. Ana, Cho'lpon, Fitratlar taqdiri nima bo'ldi. Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlar-chi? Sen chuqur o'yla, zamon og'ir, qama-qama zamon. Sal yanglishsang, toyasan. Ana Abdurahim tog'ang Qishloq xo'jalik institutiga kirsin, deyapti. Men ham shuning tarafdoriman. Otangning yolg'iz o'g'lisan, tikilgan ko'zisan.

„Avlodimizda shoir, yozuvchi yo'q edi, hech kim yo'l ko'rsata olmadi, men esa G'ofur G'ulom, Oybek, Mirtemirlarga „Menga shoirlikni o'rgatinglar“, deya olmadim. Ular ham mendagi bu qiziqishni sezib

olmadilar. Balki bunga mening tortinchoqligim sabab bo'lgandir“, deydi keyinchalik Mahmud Mirzayev.

Shunday qilib, qarindoshlar maslahati bilan 1938-yil Mahmud 10-sinfni bitirib, Toshkent Qishloq xo'jaligi institutiga o'qishga kiradi.

HAYOT SABOQLARI

Har bir odam kelajakka ishonch bilan qarab, astoydil mehnatga yopishsa, o'z sohasini sevsa, qiyinchiliklarni qat'iylik bilan yengsa, yuzaga chiqadi, obro'li bo'ladi, qadrli bo'ladi. Qirq yoshinggacha obro'ning ketidan quv, qirqdan so'ng obro' o'zi seni qidirib topadi.

Mahmud MIRZAYEV

Rivoyat

O'tgan zamonda bir donishmand bo'lgan ekan. Uning shogirdlari sanoqligina ekan. „Shogirdlikka oling“ deganlarni ham chertib-chertib, qattiq sinovdan o'tkazib olarkan.

Kunlardan bir kun uning oldiga chekka qishloqdan bir yigit kelibdi. Donishmand uni haydasa ham ketmay eshigi ostonasiga o'tirib olibdi. Bir kuni donishmand ko'chaga chiqsa, eshigi tagida yigit hali ham o'tirganmish.

— Aytdim-ku senga, uyingga bor deb, bu o'tirishingdan naf yo'q! — debdi u.

— Men otamni sizga shogird tushib odam bo‘lib qaytaman deb ishontirganman, — debdi yigit. — Qaytib borsam nima degan odam bo‘laman.

Donishmand uyga kirib ketibdi-da, o‘ylay-o‘ylay xizmatchisiga:

— Eshikda o‘tirgan yigitni olib kir, — debdi.

Yigitning quvonchi ichiga sig‘may donishmandning huzuriga kiribdi.

Donishmand indamabdi-da, uning qo‘lidan ushlab hovlisidagi yerto‘laga boshlab kelibdi-da:

— Qani, shu yerda o‘tira tur-chi, — deb uning ustidan qulflab chiqib ketibdi.

Yerto‘la tor, zax va qorong‘u ekan. Dastlab yigit hech narsani ko‘rmabdi. U yerto‘laga qamalishining sirini tushunolmabdi. Sovuq qotib, badani dir-dir titray boshlabdi. Yurib turay desa boshi shipga tegarmish. Ko‘zi qorong‘ulikka o‘rgangach, katta bir xarsang toshga ko‘zi tushibdi. Yigit yerto‘laga qamalishining sirini endi tushuna boshlabdi. So‘ng xarsang toshni qo‘zg‘atishga urina boshlabdi.

Erta bilan donishmand yerto‘la eshigini ochib qarasaki, shogird tushaman degan yigit terlab-pishib qip-qizarib xarsang toshni hali uyoqqa, hali buyoqqa dumalatayotgan ekan.

Donishmand sir boy bermabdi-da, yigitni yerto‘ladan olib chiqib ketibdi va unga o‘z hunari sir-asrorlarini o‘rgata boshlabdi.

Yetti yilda yigitning nomi qishlog‘igacha mashhur bo‘lib yetib boribdi. O‘g‘lining nomini eshitgan otasi xursand bo‘lganidan yig‘lab yuboribdi. O‘ninchi yil esa donishmand: „Endi o‘zing uztoz bo‘lding, qishlog‘ingga borib shogirdlar yetishtir“, deya unga oq fotiha berib jo‘natibdi.

Mahmud Mirzayev endi talaba. U Yaponiya, Italiya, Fransiyada ilm olib kelgan M.I.Slonim, N.V.Kovalyov, Ya.A.Kats, Roskovskiy, Globov kabi jahonga tanilgan odamlardan tahsil oladi. Bir paytlar bog'dorchilik ishlariga qiziqqani, Atoyosin amakining bog'laridagi hayotiy tajribalar, otasi, Miryoqub amakisi bilan goh otda, goh piyoda qishloqma-qishloq, dalama-dala kezgan davrlari juda qo'l keldi Mahmudjonga.

Mahmud Mirzayev bog'dorchilik mutaxassisligini tanladi. Institutda domlalar juda talabchan, intizom qattiq. Ayniqsa, Roskovskiy domla talabalarni chertib-chertib imtihondan o'tkazadi. Hatto besh-o'n martalab qayta imtihon olaveradi. Ana shu Roskovskiydan bir imtihonni Mahmudjon topshirolmay qoladi. Har safar "5" ga o'qiydigan o'g'li bu gal o'tmay qolganidan otasi xavotirga tushadi.

— Yur, o'zim borib domlang bilan gaplashaman, — deydi o'g'lining xayol bilan yurganini sezgan ota.

— Yo'q, otasining erkasi bo'lgan davrim o'tdi, ada, endi o'zim mustaqil harakat qilaman, xavotir olmang, o'tib ketaman.

Kutubxona Mahmudjon uchun ikkinchi uy bo'lib qoldi. Nihoyat eng qiyin fandan o'tib, uyidagilar oldida yuzi yorug' bo'ldi.

— Ana shu o'zingga ishonganing menga quvvat beradi, — dedi bir kun otasi. — Sendan xotirjamman, o'zingni o'zing eplab ketasan. Xudodan shuni so'ragan edim bolam, ilm ol, ilm olsang avlodimizning qaddini ko'targan bo'lasan.

Bu orada keksayib qolgan ota-onasi tez-tez kasal bo'lib qolishar, ro'zg'or bir navi o'tardi. Mahmudjon kishilar uyida bog'bonchilik qilar, ba'zan duch kelgan ishni bajarib yurar, buni ota-onasiga bildirmasdi. Kunlarning birida Mahmudjonning holatini sezib yurgan Muxail Ilich Slonim so'rab qoldi:

— Mahmudjon, nega buncha xomushsan?

— Ota-onam keksayib qolishgan, otam betob, ularga yordam berish o'rniga o'qish bilan ovoraman.

M.I.Slonim o'ylanib turdi-da:

— Bo'lmasa bunday qilamiz, — dedi. — Seni laboratoriyaga ishga olamiz. Ham o'qiysan, ham tajriba orttirasan.

Ilmga, o'z sohasiga sodiq odamlardan kim bo'lishidan qat'iy nazar yaxshilik kutish mumkin.

Ustoz-shogirdlik millat tanlamas ekan. Mahmud Mirzayev professor Slonimning eng yaxshi shogirdlaridan biriga aylandi.

Institutni tugatish arafasida urush boshlanib qoldi. Mahmud Mirzayevni harbiy o'qishga chaqirdilar. Ko'p o'tmay „Kimki qishloq xo'jaligida o'qisa, qaytarilsin“, degan qaror chiqib, ikki-uch oydan so'ng Mahmud Mirzayev yana o'qishga qaytadi. Shu yil institutni tugatgan Mahmud Mirzayev bog'bon-sohibkor ixtisosini egallaydi. O'sha paytdagi Qishloq xo'jalik vaziri o'rinbosari Qosim Rahimov Mahmud Mirzayevni chaqirib:

— Sizni subtropik zonaga ishga yuboramiz. Surxondaryoda Sho'rchi tumani tashkil etilyapti. Shuyoqqa borasiz, — deydi.

Mahmud Mirzayev Sho'rchi tumanida qishloq xo'jalik bo'limini (o'sha paytdagi RayZO) boshqara boshladi.

Urush davri. Ko'p mutaxassislar urushda. Surxondaryoda esa ish qaynab yotardi. Bir yarim yilcha o'tgach, Mahmud Mirzayevni viloyat qishloq xo'jalik bo'limiga ishga olishdi. Ishchan yigit tez orada ko'pchilikning diqqatini tortdi, e'tibor qozondi. Yosh mutaxassisning o'zi esa hayot ilmini, boshqarish ilmini, odamlar bilan muomala ilmini o'rgandi. Katta hayot qozonida qaynab, yanada chiniqdi. To'polon daryodan paromda o'tib yurganlari, ot minib dalama-dala kezganlari Mahmud Mirzayevning hamon yodida.

Bir kuni Surxondaryoga Qosim Rahimovning o'zi borib qoldi.

— Ha yigit, ishlab yuribsizmi? Qiynalmayapsizmi? Uylanganmisiz? Ota-onangiz...

Mahmudjon „uf“ tortib yubordi.

— E, oka, ota-onamning yolg'iz o'g'liman, ular Toshkentda qolishgan, hali uylanmaganman.

— I-ye, shundaymi, buyog'ini o'ylamagan ekanmiz-u.

Ikkovlon miriqib hali tog'dan, hali bog'dan rosa suhbatlashishi.

Ko'p o'tmay Mahmud Mirzayevni Toshkentga chaqirdilar. Vazirlikdan: „Qibrayda, 15-sovxoza agronom bo'lib ishlaysiz“, degan topshiriq bo'ldi. Mahmudjon yana ishga kirishib ketdi. O'ttiz nafar kishi bilan oltmish gektarlik bog' yaratdi. Bir yoqda ilmiy ishni ham tashlab qo'ymadi. Aspiranturaga hujjatlar topshirdi, o'qishga kiringach, professor N.V.Kovalyovga shogird tushdi. Qizg'in ishga tushib ketgan bir pallada unga: „Sizni Usmon Yusupov qabuliga chaqiryapti“, deyishdi. Usmon Yusupov u paytda O'zKP Markaziy Qo'mitasining birinchi

kotibi edi. Qabuliga kirishdan avval o‘rinbosari Manzir Mirzabekov: „U kishining so‘zlarini ikki qilmang, qayerga yuborsalar xo‘p deng“, deya uqtirdi.

Birinchi kotib Mahmudjonning oilaviy ahvoli, ishlarini so‘rab surishtirdi. U bilan samimiy suhbatlashgach:

— Nima deysiz, Sizni Shreder nomli bog‘dorchilik stansiyasiga boshliq qilib yuboramiz, — dedi.

— Ilmiy ishim qolib ketadi-ku, men ilm kishisiman.

— Muhimi, bu yerda tajribangiz ham oshaveradi, ilmiy ishingiz ham bo‘laveradi.

— Bo‘lmasa, dadam bilan bir maslahatlashay.

— Mayli, boring, o‘ylab ko‘ring.

Ertasi ertalab esa Mahmud Mirzayevning eshigi oldida davlat mashinasi turardi. Haydovchi kirib keldi-da: „Mana, sizning Shreder stansiyasiga direktor bo‘lganingiz haqidagi buyruq. Men esa bugundan boshlab haydovchingizman. Sizni ishga olib ketgani keldim“, deb turibdi-da.

Shu ishni ishonib topshirgan ekanlar, Mahmud Mirzayev yana ilhom va ishonch bilan ishga sho‘ng‘ib ketadi. Dastlab Kengsoy tomonlarni obodonlashtirib bog‘cha, maktab, xizmatchilar uchun uylar qurib, xodimlarni vatanli qilishdan boshlaydi ishni. Stansiyaning ilmiy tekshirish institutiga aylantiradi. Yarim yil o‘tgach esa Mahmud Mirzayevni Qishloq xo‘jaligi vazirligiga vazir o‘rinbosarligiga chaqirib olishadi. Ammo, vazirlikdagi qog‘ozbozliklar, to‘rachiliklar uning tabiatiga yot edi. „Bu mening ishim emas, men ilm kishisiman“, deydi-da, Mahmud Mirzayev yana o‘zi rahbarlik qilgan Shreder nomli bog‘dorchilik ilmiy-tekshirish institutiga qaytib keladi.

Rivoyat

Bir yigit tijorat ishlari bilan uzoq safarga o'tlanibdi. Yarim yo'lga kelishganda, u muzlab qolibdi. Karvondagi yo'ldoshlari yigitni quyosh tig'iga olib kelib qo'yibdilar, badanidagi muz erimabdi. Jazirama qumga ko'mibdilar, muz erimabdi. Atrofida gulxan yoqibdilar. Muz erimabdi. Bu ne sir-sinoat? Ulfatlar donishmandga maslahatga yuguribdilar. Karvon boshida ketayotgan donishmand kelib:

— Onasini olib kelinglar, — debdi.

Yigitning onasini olib kelibdilar. U o'g'li atrofida gir-gir aylanaveribdi: „Voy bolam, senga nima bo'ldi?“ Ona mehrining tafti farzandi badanidagi bir qavat muzni eritib tushiribdi.

— Endi xotinini olib kelinglar, — debdi donishmand.

Xotini ham yelib-yugurib kelib: „Voy begim, sizga nima bo'ldi?“ deb chir aylangan ekan, yigit badanidan yana bir qavat muz erib tushibdi.

— Endi farzandini olib kelinglar, — debdi donishmand.

Jajji go'dak chuchuk til bilan „Ada, ada“ deya yigitga talpingan ekan, uning badanidagi uchinchi qavat muz ham erib, yigitning yuragiga iliqlik yugurib, unga qayta jon kiribdi.

Bir yigitning tug'ilib, unib-o'sib, kamol topib, elga tanilishi uchun oila — ota-ona mehri, ayoli muhabbati, farzandining sehri, ya'ni xonadonidagi halovat muhim ahamiyatga egadir. Mahmud Mirzayev ham to elga qo'shilib, elga tanilguncha ota-onasi, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shni, ayoli va

farzandi, ustozlari va yaxshi odamlarning mehrini doim his etib turdi.

Endi u bir oila boshlig'i. Katta bir muassasa rahbari edi.

Mahmud Mirzayev dastlab Shrederga kelganida stansiyaning 60 gektar yeri bo'lib, 30 nafar ilmiy xodimi bor edi. Asta-sekin institut qoshida bo'limlar ochila boshladi. Seleksiya, qayta ishlash, genetika...

Hozirgi kunda R.R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-ishlab chiqarish korporatsiyasiga aylangan bu muassasaning viloyatlarda 24 ta tashkiloti bo'lib, jami 18 ming gektar yer maydonini egallagan. Hozir 250 nafardan ortiq ilmiy xodim ijodiy ish bilan shug'ullanmoqda. Sakkiz mingdan ortiq ishchi-xizmatchilari bor.

Institutning yangi navlarni yaratishda, ko'chatchilik sohasidagi xizmatlari beqiyos. Institut respublika bo'yicha 25 turdagi 5—8 million meva ko'chatlari, 15—25 ming tonnagacha har xil mahsulot beradi. Qibrayda vinochilik ilmini o'rganadigan zavod, 11 yillik maktab qurildi. Mevachilik, bog'dorchilik sohasiga texnika yetkazib beradigan boshqarma tuzildi. Olimlar 12 xil mexanizmni bog'dorchilik ishlab chiqarishiga joriy etdilar. Institut qoshidagi Qishloq xo'jalik texnikumi kollejga aylantirildi. Bog'bonlar maktabi ishlab turibdi. Aspirantura ochildi. Qishloq xo'lik vazirligi bilan eksperimental baza qoshida Malaka oshirish markazi ochilgan. Dunyodagi boshqa davlatlar bilan urug', ko'chat almashtirish uchun karantinli pitomnik tashkil etildi. Institut Turkiya va Arab mamlakatlari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Stansiyaning bog'dorchilik, mevachilik va vinochilik ilmiy-

tekshirish institutiga, birlashmaga, mustaqillik yillarida korporatsiyaga aylanishida unga 52 yildan beri bosh rahbar bo'lib kelgan Mahmud Mirzayevning hissasi katta, albatta.

„Qimmatli umr chaqmoq kabi o'tib ketadi, umr daqiqalari dengiz to'liqlari yanglig' doimiy emas. Har bir o'tgan vaqt bebaho javhar kabi qimmatlidir. Mana shuni chuqur anglab yetmoq kerak“.

Husayn Voiz Koshifiy

Mahmud Mirzayev hayoti va faoliyatini sohibkorlik va bog'dorchilikday faxrli va xayrli kasbga yo'naltirdi. Umrini shu soha ilmiga baxshida etdi. Institutni jahonga tanitdi. Hozir institut imkoniyatlari dastlabki davridan yuz ellik-ikki yuz barobar ortdi.

Mahmud Mirzayev umr solnomasiga bir-bir ko'z tashlar ekan, bog'bon, tadbirkor otasi, chevar onalari, amakisi Miryoqub Ibrohimov, qo'ni-qo'shnilari Boy aka, Hojibuvalar, o'qituvchilari Mirjalil, Mirsidiq akalar, Atoyosin bog'bon, bolalikdagi o'rtoqlari Mirmahkam, Anvar, Ertoylar, ustozlari Rizamat ota Musamuhamedov, akademik Slonim, N.V.Kovalyov, N.V.Kuznesov, P.A.Grilenkolarni ko'p eslaydi.

Bir kuni uning qabuliga akademik Slonim kirib keldi. Ustozi u bilan quchoqlashib ko'rishar ekan: „Sendan minnatdorman, ishonchimni oqlading“ deganida Mahmud Mirzayevning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Qani endi uning bu baxtini otasi ko'rganda edi. Yana bir kuni Mehnat Qahramoni,

sohibkor Rizamat ota kelib o'zining katta qilib ishlangan rasmini sovg'a qildi.

— Sen ishongan shogirdimsan, buni senga topshiryapman, har ko'zing tushganda eslab turasan.

Bir kuni o'qituvchisi Mirjalil aka katta bir guldon ko'tarib keldi. „Sendan umidim katta, xursandman, meni eslab yur“, dedi. Odamzod uchun ota-ona, ustoz roziligidan katta baxt bormi dunyoda.

Eng qizig'i, bir kuni uning oldiga Atoyosin bog'bonning kenjasi kirib keldi. Institutda endi ish boshlagan kezlari edi. Urush tugagan, mamlakatda qayta tiklash ishlari boshlangan, odamlarning turmush darajasi hamin qadar. Institutga Anvar kirib keldi. Hol-ahvol so'rashishdi. Qovunchidagi bog'bonchilik ishlarini eslashdi.

— E, gapirmang do'stim, u tollar kesilib ketdi. Miroboddagi hovlida yakka o'zim qoldim. Ota-onam o'tib ketdi. Aka-ukalar uylanib chiqib ketishdi. Bosh bo'ladigan odam yo'q. Uylanmoqchiman. O'zingiz bosh bo'lsangiz, — dedi.

— Xo'sh, ayting, jonim bilan.

— Sovchilik qilsangiz.

— Kelin tayyormi? Kimning qizi?

— Qo'shni mahallada bir qiz bor, onasi unama-yapti, otasi yo'q.

Mahmud Mirzayev ertasi bozorga tushib, qiyiqchaga pashmak, holva, novvot tugib sovchilikka bordi. Qizning onasi gapni eshitdi-eshitdi-da:

— Bolaning hunari yo'q ekan, ro'zg'or yuritolmaydi, — dedi.

— O'zingiz nima bilan shug'ullanasiz?

— Menmi, men bo'z to'qiyman.

— Bo‘z to‘qisangiz o‘zingizga shogird qilib oling, mehnatdan qochadigan yigit emas. Ham o‘g‘il, ham kuyov, ham shogird bo‘ladi, — deydi Mahmud aka.

— Tinch-totuv yashab ketishiga siz kafil bo‘lasizmi?

— Albatta.

— Unda mayli, to‘yga o‘zingiz bosh bo‘lasiz.

Mahmud Mirzayev yigitning aka-ukalarini chaqiradi. Maslahatlashib to‘yni o‘tkazib berishadi. Har zamon-har zamonda Anvarning bolalari yo‘qlab kelishganda bag‘ri to‘lgandek bo‘lib ketadi. Negaki ular yoshlik yillarini, ota-onasi, Atoyosin amakini esga solib turadi.

Mahmud Mirzayev ellik yillik ilmiy faoliyati davomida 350 dan ortiq ilmiy-amaliy ishlarni yuzaga chiqardi. 10 ta yirik monografiya e‘lon qildi. Uning rahbarligida o‘nlab olimlar nomzodlik ilmiy ishini yoqladilar. Ular orasida Moskva, Moldova, Qrim, Qirg‘izistondagi shogirdlari bor. Viloyatlardagi o‘rinbosarlarining-ku sanog‘iga yetolmaysiz. Ezgulik ezgulikni keltiradi, deydilar. Mahmud Mirzayevning mamlakatni bog‘ga aylantirish sohasidagi ilmiy ishlari, Respublikaning bosh bog‘boni sifatidagi faoliyati samarasiz ketmadi. 1971-yil u Mehnat Qahramoni bo‘ldi. 1975-yilda fan doktori, 1978-yilda VASXNIL (hozirda Rossiya Qishloq xo‘jalik fanlari akademiyasi) muxbir a‘zosi, 1988-yilda akademik darajasiga ko‘tarildi.

Yaxshidan bog‘ qoladi, bog‘ yaratgan yasharadi, derdi ustoz Rizamat ota. Ustoz o‘gitlariga quloq solgan shogirdni el ham e‘zozlaydi, uning hurmatini joyiga qo‘yadi.

Yerni Quyosh va Oy, osmondagi yulduzlar yoritib, yashnatib turganidek, Odam bolasi Ota-Ona va yaqin kishilari, atrofidagi yor-birodarlari tufayli ko'karadi, elga taniladi.

Umr mazmuni shu. Kunlar kelib ortingga bir nazar solganingda nurli kunlar xotirangni yashnatib yuboradi. To'g'ri, tashvishli, g'amgin kunlar ham bo'ladi, lekin yaxshi, nurli kunlar bu g'am muzlarini eritib yuboradi. Maqsad sari intilish umringni yana ham mazmunli qilib boraveradi.

Ota-onasi endi yolg'iz o'g'il oyoqqa turib, undan rohat ko'ray deganda abadiyatga ketishdi. Rafiqasi Ruhiya xonim endi bolalari katta bo'lib rohatga kiray deganda bu dunyodan ko'z yumdi. O, u kunlar. Mahmud aka ularni eslasa, tarki dunyo qilvorgisi keladi. Lekin, qalbidagi bu bo'shliqni qizlari Husniya va uning bolalari, o'g'illari Maqsud va Mirhotamlar to'ldirib turadi. Quvonchlisi shuki, o'g'illar ota kasbi boshini tutishdi. Husniya vrach. Mahmud aka kenja o'g'lining onasi yotgan kasalxonada tunni kunga, kunni tunga ulab yotib qolganlari, kasal onasini boqqanlari, onasi vafot etgandan so'ng ham uchto'rt yilgacha o'sha kasalxonaga borib pastdan daraxt quchoqlab onasi yotgan palata tomon mo'ltillab „Onamni ko'rarmikanman“ deb yurganlarini o'kinch bilan eslaydi. Bu gaplarni beparvo eshitolmaysiz. Beixtiyor ko'zlarga yosh keladi.

Lekin yana katta maqsad sari intilish maydachuyda tashvish-g'amlarni, hoyu-havaslarini unutturadi, umringni yanada mazmunli qilib boraveradi.

II qism

JANNAT MEVALARI

Jannat — bu bog'dir.

Mahmud MIRZAYEV

Rivoyat

Odamzod paydo bo'lganda Xudoyi taolo ularga yer ulasha boshlabdi. Hamma talashib-tortishib „Menga tog'lik yer, menga suvlik yer“ deb so'ray boshlabdi. Yana kimgadir cho'l, kimgadir tog' oralig'i tegibdi. „Kim qoldi?“ deb so'rabdi Xudo. Shunda farishtalar „Bir qavm bor, boyatdan beri bir chekkada talashib-tortishmay qo'l qovushtirib turibdi, shularga yer qolmadi“, deyishibdi. „Bunday sabrli qavmga jannatning bir bo'lagini ajratinglar“, debdi Oллоh. Bu qavm o'zbeklar ekan.

Bog'dorchilik millatimizga ota kasb. O'zbek xalqi qadimdan bog' yaratib kelgan. Arablar fathini olasizmi, mo'g'ullar bosqini, keyinchalik Rusiyaning ishg'ol etish sabablaridan biri yurtimizning jannatmonand yerlari va bog'lari bo'lsa ajab emas.

Tarixda Amir Temur bog'lari deb atalmish Bog'iston, Bog'ishamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i baland... Shoh Bobur va uning avlodlari Hindistonda yaratgan bog'lar hamon odamlarni hayratga solib keladi. Ha, bog'dorchilik o'zbeklarning otabobolaridan avlodma-avlod o'tib kelgan kasb.

O'zbeklar qadimdan bir parcha yerini ham guldek yashnatib qo'ygan. Isli-uforli atirgul, rayhon, jambillar, namozshomgul, gulibeorlar kaftdekkina

hovlisini bezatib turgan. O'rik, jiyda, behi, olma, tok, nok, tut kabi turli-tuman mevali daraxtlar hovlisiga zeb bergan, hosili dori-darmon bo'lgan, har qanday qiyinchilik davrida ham (ocharchilik, urush yillari) o'zbeklarni ana shu bog'dorchilikdan kelgan noz-ne'matlar sog'-omon olib chiqqan.

Qishda turshak, jiyda, olma qoqi, shaftoli qoqi, qovun, olcha qoqilar tanasiga quvvat bergan, turli kasalliklardan saqlagan.

Bog'ni boqsang bog' bo'ladi, degan maqol o'zbeklarda qadimdan bor. Bu bejiz emas.

O'zbek bolalari daraxtlarga, so'rilarga osilgan belanchaklarda katta bo'lishgan, uyqudan ko'zlarini ochib, gullab yotgan daraxtlarga yoki hosili rang talashgan olma, anor, uzum, behi, balx tutlarga ko'zi tushgan. Bola yig'laganida onalar so'rg'ich o'rniga bola og'ziga uzum g'ujumini tutganlar. Bola ranglardan, yashillikdan bahra olgan, ya'ni o'zbek bolasi tug'ilganidanoq o'zining jajji bog'chasida unib-o'sgan.

Bog'bonlik ko'p oilalarda ota kasb bo'lib kelgan. O'zbek bog'bonlari o'rik, yong'oq, shaftoli, anor, bodom, nok kabi mevalarning mahalliy navlarini yaratganlar, ular hosildorligi, mazasi, mahalliy iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, kasallik va zararkunandalarga, qurg'oqchilikka chidamliligi bilan alohida xususiyatga ega bo'lgan.

Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach, Toshkentdan Orenburggacha temiryo'l qurilgandan keyin Rossiya tomonlarga ho'l meva yuborish miqdori yil sayin ortib borgan. Keyinchalik Toshkent vohasiga Qrim, Fransiya, Amerikadan yangi meva navlarini olib kelib, bog'lar barpo qilina boshladi.

Toshkent vohasidan esa turli viloyatlarga olma va boshqa xil meva navlari tarqatila boshlandi. Natijada 1855-yilda Turkistonda Butunittifoq Rossiya bog'dorchilik filiali ochildi. 1889-yilga kelib, bu filial Turkiston Qishloq xo'jalik organiga aylantirildi. Va unga bog'dorchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olim, Akademik Rixard Rixardovich Shreder rais qilib saylandi.

1920-yillarga kelganda O'zbekiston hududida boryo'g'i 22 ming gektarga yaqin bog'lar bor edi, deyiladi eski manbalarda. Aslida shunday edimi? Har bir o'zbekning hovlisi, tomorqasi bog' emasmi? Tuprog'i aynimagan, hosillar bo'liq, mevalar totli edi axir! Bog' yaratish kasbi o'zbekdan qolgan axir! Afsuski, urush va urushdan keyingi yillar bog'larning ko'pi kommunistik mafkura siyosatining qurboni bo'lib, qirqilib ketdi.

Sho'ro tuzumi davrida ham Rizamat ota Musamuhamedov va uning yuzlab shogirdlari bog' yaratish, yangi navlar yaratish, ko'chat yetishtirish, xalqimizni tar va quruq mevalar bilan ta'minlash borasida da'vat bilan chiqqan edilar. Negaki, bu paytgacha kelib, paxta yakkahokimligi kuchaygan, vinochilik ishlariga ruju qo'yilgan, ko'p bog'lar buzulib, o'rniga paxta ekilgan, borlarida ham meva va uzum navlari sanoqli bo'lib qolgan. Faqat vinobop uzumlar yetishtirish siyosati amalda edi.

1980-yilga kelib bir gektar maydondagi bog'dan 49 yarim sentnerdan meva olingan. 1986-yilda bu raqam 48,2 ga, 1988-yil esa 45,3 sentnerga tushib qolgan. Oqibatda 1988-yili rejadagi 811,3 ming tonna meva o'rniga 616,8 ming tonna meva, 783,5 ming tonna uzum o'rniga 640,4 ming tonna uzum

yetishtirilgan, xolos. Xuddi ana shu kezlarda millat o'g'loni, elparvar olim Mahmud Mirzayev tinch turolmadi va u xalqqa murojaat bilan chiqdi.

Mavjud bog'lar hajmining aholi soniga muvofiq ravishda o'sishi o'rniga kamayib borayotganligi va e'tiborsizlik natijasida hosildorlikning pasayishi Mahmud Mirzayevni xavotirga soladi.

1988-yilga kelib 1985-yilga nisbatan bog'lar 4,3 ming, tokzorlar 4,4 ming gektarga qisqarib ketdi. Mahmud Mirzayev o'z murojaatida tog'oldi va tog'li zonalardagi bo'sh yotgan unumdor yerlarni o'zlash-tirib ko'chat ekish, uzum navlari, danakli mevalar, yong'oq va subtropik ekinlar o'stirish fikrini ilgari suradi.

Mahmud Mirzayev boshchilik qilayotgan ilmiy ishlab chiqarish institutida qiya yerlarda bog' va tokzorlar barpo etish va ularni parvarishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bunda joyning tuproq tarkibi, dengiz sathidan balandligi, qay darajada qiyaligi, yerning nam saqlash xususiyatlari e'tiborga olingan.

Murojaatda olim mavjud bog' va tokzorlardagi xato joylar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Buxoro, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari)ni to'ldirish, ko'chatlar sonining to'liq bo'lishini ta'minlash, natijada hosildorlikni ko'tarish fikrini ilgari surdi. Ma'lumki, ko'chat yetishtirish uchun 4—5 yil darkor.

Respublikamizda har yili bahorda ko'chat ekish ikki oyligi o'tkazilib, yuz million, shu jumladan 20 million turli meva va uzum nihollari o'tqaziladi va nihoyat qarabsizki, bir yil o'tgach, bu tadbir xo'ja ko'rsin uchun qilingan bo'lib chiqadi. Ya'ni ekilgan

nihollar qarovsiz qolib, yarmidan ko'pi qurib qoladi. Ammo, buning uchun hech kim javob bermaydi.

„Yil bo'yi el dasturxonini meva-cheva bilan ta'minlash uchun ertaki, o'rtaki va kuzgi navlarni yetishtirish kerak“, deydi Mahmud Mirzayev.

Xalqimizning „Toqqa chiqmasang do'lona qayda?“ maqoliga amal qilgan olim toshloq, qumloq va adir yerlarda paxta ekish foydadan ko'ra ortiqcha mablag' sarf etadi, deb kuyunib yozadilar. Bu yerlarda bog'lar barpo etish, mevachilik va uzumchilikka ixtisoslashtirish darkor, deydi olim.

Mahmud Mirzayev o'zi boshchilik qilgan ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida bog'dorchilik texnikasiga alohida e'tibor berdi. Bog'dorchilikda ishlatiladigan zarur mashina va jihozlar, asbob-uskunalar yaratish sexi ishga tushdi.

Birlashmada meva va uzum zararkunandalariga qarshi kurashning tabaqalashtirilgan samarali biologik tizimi ishlab chiqilgan. Sug'orishda tomchilab sug'orish usuli ishlab chiqildi. Bunda suv isrofgarchiligiga yo'l qo'yilmaydi. Bog'lar hosildorligi saqlab qolinadi. Sifati yaxshi bo'ladi.

„Bog'lar ijara pudratini joriy etish samara garovidir. Faqat bunda ularga ko'chatlarni vaqtida yetkazib berish, o'g'it, texnikadan yordam ko'rsatish kerak. Daraxtlar qariguncha ularni ijarachilar o'rnida qoldirish o'rinlidir. Bog' jamoli bog'bondan“, deydi Mahmud ota.

Daraxt ham odamga o'xshaydi. Nihol bo'ladi, unib o'sadi, gullaydi, yashnaydi, qariydi, nihol o'stirgan insondan sira yomonlik chiqmaydi. Shu sababdan bolalarga nihol o'stirish, parvarish qilish, hosilidan bahramand bo'lish, mehnatning natijasini ko'rish

zavqini bera bilish kerak. Bog' yaratish ishqini diliga solish kerak, toki bir kaft yeridan ham unumli foydalanishni o'rgansin.

Uyda kitob javoningiz bormi? Bor bo'lsa, undan qanday kitoblar joy olgan? Kitob — oftob, kitob — do'st, kitob — nondek aziz, deyishgan ota-bobolarimiz. Ular bir parcha qog'ozga bitilgan xatni ham tabarruk hisoblaganlar. Kitoblarga duxoba, beqasam, atlasdan jild tikib, uylarning to'riga osib qo'yganlar yoki qutilarda saqlaganlar. Qog'ozni yerga otmaganlar. Bulg'amaganlar, g'ijimlamaganlar, buni gunohi azim deb bilganlar. Ular kitob yozgan odamlarni avliyo deb sanashgan. Kitobdagi so'zlarni valiyalar aytgan deb dillarining qat-qatiga joylaganlar.

Biz ota-bobolarimizdan qolgan ana shu udumni saqlab qoldikmi? Badiiy kitoblar o'qiymizmi? Tabiiy fanlarga oid kitob ongingizni charxlasa, badiiy kitob sizning ma'naviy, ruhiy olamingizni boyitadi, e'tiqodingizni mustahkamlashga yordam beradi, sizda burch va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi.

Aziz o'quvchim! Kitob javoningizga bir qarang, uni yangi kitoblar bilan boyiting!

O'zbek milliy matbaasining sardorlaridan biri Islom Shog'ulomovning „Buni umr derlar“ kitobini balki o'qigandirsiz. Agar o'qimagan bo'lsangiz uni kitob do'konlaridan axtaring. Topolmasangiz, kutubxonalariga boring, qidirib, albatta o'qib chiqing.

Kitobning „Nevaralarimga maktublar“ bobida o'simlikshunos olimimiz, akademik Mahmud

Mirzayev ham tilga olinadilar. Buning sababi shunday:

Taniqli matbaachi Islom Shog'ulomovning o'g'illari Alisher Shog'ulomov (xudo rahmat qilgan bo'lsin) ToshDUning jurnalistika fakultetida o'qir ekan, o'quv tajribasini Moskvadagi nashrlardan birida o'tamoqchi bo'ladi. U otasiga taskin berib: „Jurnalist bo'laman degan inson yengilning ostidan, og'irning ustidan yurmasligi kerak“ deb o'zingiz aytasiz-ku, adajon“, deydi va Moskvaga jo'nab ketadi. Oradan bir oy o'tgach, Alisher Moskvadan qaytib keladi.

— Xo'sh, musofirchilik nonining mazasi qanaqa ekan?

— Judayam qattiq ekan, lekin shirinu soz ekan, — deydi Alisher otasiga.

So'ng u Toshkentga ijodiy komandirovkaga, „Nedelya“, haftaligiga material tayyorlash uchun kelganini aytadi. Ota uchun bundan katta baxt bormi dunyoda. O'g'ling Moskvaga borsa, yana yetuk jurnalistlardek unga buyurtma berishsa.

Alisher Moskvaga borganda meva bozorlarini bir-bir aylanib, turli-tuman mevalardan totib ko'radi. Bolgarlarning olma-uzumlari, Qrimdan keltirilgan turli-tuman meva-chevalar, Rossiyaning janubida yetishtirilgan tarvuz, poliz ekinlarining ta'mini bir-bir tatib ko'radi-da, ularning mazasini O'zbekiston mevalariga o'xshatmaydi. Alisher kuzatib tursa, moskvaliklar ham O'zbekistondan keltirilgan mevalarni xarid qilisharkan. Moskvada yashab, o'qib yurgan yurtdoshlarimiz ham ozimizning mevalardan olib „Bular jannat mevalari“ deyisharkan. Alisher o'ylanib qolibdi: „Nega endi quyosh hamma yerga baravar nur sochsayu, O'zbekistondagi

mevalarning ta'mi o'zgacha". Bu savolga o'zi ham javob topolmay hamkasblari o'rtasiga tashlabdi. Hech kim aniq bir javob topolmabdi. „Bo'lmasa, O'zbekistonga borib bu masalani o'rganib, shu savolga javob topib kelasan“, degan topshiriq bo'libdi. Alisher ana shuning uchun Toshkentga kelgan ekan.

Oradan uch kun o'tgach, Alisher:

— Topdim, ada, topdim! — deydi bolalarcha quvonib. — Akademiyaga bordim. So'ng eng katta bog'bon, akademik, Bog'dorchilik va uzumchilik ilmiy tekshirish institutining bosh direktori Mahmud Mirzayev bilan uchrashdim.

Shundan so'ng Alisher Mahmud Mirzayev bilan ota-boladek bo'lib, uning hayoti, faoliyatini o'rganadi. Ko'p o'tmay „Nedelya“ haftaligida uning akademik Mahmud Mirzayev haqidagi ocherki e'lon qilinadi.

Aziz o'quvchim! Men bularni nega yozyapman? Avvalo Alisherning jurnalist sifatida o'zi mustaqil bo'lishga intilayotgani, ikkinchidan, hayotiy qiziqishlarini maqsadga aylantirish, uchinchidan, Mahmud Mirzayev bilan suhbat davomida e'tiboringizni yana „Jannat mevalari“ga qaratmoqchiman.

Yaqinda bir hamkasbimiz Amerikaga borib keldi. „Hamma narsa bor. Dasturxonda ho'l mevalar mo'l-ko'l. Bir-bir tatib ko'rdimu, ammo mazasi bizning mevalarga o'xshamaydi-da. O'zbekiston mevalarining o'zi katta milliy boyligimiz ekan. Agar ulardan rasional foydalanishni bilganimizda edi, balki shu sohaning o'zidan katta foyda ko'rish mumkin bo'lur edi“ dedi.

Akademik Mahmud Mirzayev ana shunday milliy boyluk yaratgan insonlardan biri. Endi Alisher

Shogʻulomovning savoliga Mahmud Mirzayevning javobini eshiting:

— Oʻzbekistondagidek iqlim dunyoning hech qaysi burchagida yoʻq, faqat Oʻzbekistondagina fasllar tengma-teng almashadi. Uch oy qish, uch oy yoz, uch oy bahor, uch oy kuz. Shuning uchun bizdagi mevalar, poliz mahsulotlari juda shirin ham emas, juda bemaza ham emas, moʻtadil. Inson salomatligi uchun nihoyatda foydali boʻlib yetishadi. Agar Oʻzbekiston mevalari, ulardan tayyorlangan sharbat, qiyom, qoqi, mayizlar dunyo yuzini koʻradigan boʻlsa, odamlar faqat shu mevalarnigina qidirib, bizning mahsulotga talabi katta boʻlib ketishi turgan gap. Bizning oʻlkamiz Ollohning marhamati bilan yaratilgan moʻjizakor bir zamin. Mavjud moʻjizalarning hammasi jannatmonand iqlimimizga bogʻliqdir.

Ana shunday jannat mevalarini yetishtirishda Mahmud otaning xizmatlari beqiyos. Hozir Bogʻdorchilik, uzumchilik, vinochilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida uzumning bir ming xili, oʻrikning 350 xili, shaftolining 300 xili, olmaning 600 xili, nokning 150 xili, anorning 80 xili bor. Ularning sifati, mazasini aytmaysizmi? Bogʻdorchilik hosi-ling mamlakat boʻylab tarqalishi, bozorlarning qishda ham, yozda ham toʻkin boʻlishi, dasturxonimizning yozda ham, qishda ham chiroyli bezatilishida Mahmud ota va u rahbarlik qilgan jamoaning mehnatlari beqiyos ekanini tasavvur eta olasiz, deb oʻylayman.

Eshitganmisiz, xalq orasida shunday gap yuradi: „Yongʻoq miyaga oʻxshaydi, shuning uchun miyaga foydasi bor, olma yurakka oʻxshaydi, yurakka foydasi

bor, nok o'pkaga, loviya buyrakka o'xshaydi va hokazo". Bu gaplar bejiz emas. Olloh bu mo'jizani ham o'zi bilib yaratgan bo'lsa ne ajab.

Mevali daraxtlarning inson salomatligiga foydasini o'ylab ko'rsak, ularni yana ham ko'paytirish va shu yo'l bilan to'kinchilik yaratib, narx-navosini ham pasaytirish mumkin.

Mevali daraxtlar xilma-xildir. Olma, olcha, olxo'ri, behi, shaftoli, nok, yong'oq, gilos, anjir, jiyda, o'rik, tut va hokazo kabi ko'p yillik o'simliklar respublikamizning deyarli har bir burchagida o'stiriladi. Mevalar yangi uzilgan va quritilgan holda iste'mol qilinadi. Ularda inson sog'lig'i uchun zarur vitaminlar, fruktoza, glyukoza, saxaroza va boshqa zarur moddalar bor.

Aytishlaricha, tabobat ilmining sultoni Abu Ali Ibn Sino mevalarning shifobaxshlik xususiyatlaridan bemorlarni davolashda samarali foydalangan. Jumladan, anjir haqida Ibn Sino shunday deydi: „... anjirning ho'li va qurug'i tomoq qirishiga foyda qiladi hamda ko'krak va o'pka yo'llariga mos keladi. Anjirning sharbati sutni ko'paytiradi“.

Anor haqida: „... nordon anor va xususan uning sharobi safroni bosadi va chiqindilarning ichki a'zolarga oqishini to'xtatadi. Uning kuydirilgan po'sti jarohat uchun doridir“.

Jiyda: “Burishtirishda va ichni qotirishda foydalidir, issiqdan bo'lgan yo'talga foydalidir”.

Olma „Xushbo'y, shirin va nordon olmalar yurakni quvvatli qiladi...“

Aziz o'quvchim! Siz ovqatlanishni bilasizmi? Nega bilmas ekanman, demoqchisiz? To'xtang, gapimga

quloq soling, biz yaxshi va sifatli ovqatlanishni hamma vaqt ham to'g'ri tashkil qila olamizmi? E'tibor bering-a, ba'zan ketma-ket go'shtli taom, ba'zan ketma-ket xamir taom yeb turishingizni eslang. Axir siz yog'li va uglevodli ovqatlarga ruju qilyapsiz. Sabzavot va ho'l mevalarga ahamiyat bermayapsiz-ku. Yoki ularning organizm uchun foydasini unutib qo'ydingizmi?

Mevalar, sabzavot va ziravor o'simliklar qadimdan ovqat mahsuloti sifatida keng miqyosda ishlatiladi. Shuningdek, ular ba'zi kasalliklarga dorivorlik xususiyati bilan yordam beradi.

Buqrot, Galin, Ibn Sino va o'tmishdagi boshqa mashhur olimlar o'z davrida sabzavot va ho'l mevalar, ularning shirasi, po'sti, ildizi, bargi bilan bemorlarni davolaganlar, ayniqsa parhez taom sifatida qo'llab kelganlar. Mevalar tarkibida kishi organizmi uchun foydali, ba'zan hayot uchun eng zarur bo'lgan biologik faol moddalar (vitaminlar, fermentlar, organik kislotalar, mineral moddalar) bo'ladi. Bular kishi tanasiga faqat ovqatlanish yo'li bilan singishi mumkin. Shuning uchun yuqorida aytilgan moddalarning yetarli yoki butunlay bo'lmasligi turli kasalliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli qaysi sabzavot, meva va ziravor o'simlikdan qanchadan iste'mol qilishni bilishimiz kerak. Shuning uchun har bir kishi sog'lig'ini hamda iste'mol qilinadigan sabzavot va mevaninig kimyoviy tarkibini hisobga olgan holda ishlatsa, ularning shifobaxshlik foydasi yaqqol seziladi. Meva va sabzavotlar ishtaha ochadi, ovqat hazmini va organizmdagi moddalar almashinuvini yaxshilaydi, sog'liqni mustahkamlaydi.

Hozirda mevalar va uzumning davolash xususiyatlari haqida ilmiy ish olib borilyapti.

“Ovqatda biror vitaminning butunlay bo‘lmasligi yoki kam bo‘lishi, organizmda moddalar almashinuvi va ayrim a‘zolar faoliyatining buzilishi, natijada turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi”, deydi Mahmud Mirzayev.

Sabzavot va mevalar, ziravor o‘simliklarda vitamin V guruhi, — V_1 , V_2 bo‘ladi. V_1 ko‘k no‘xatda, loviyada, piyoz, shovulda, karam barglarida, bug‘doy, suli, grechixa doni, yeryong‘oqda ko‘p bo‘ladi. Bu vitamin organizmda yetishmasa organizmning hayotiy faoliyati izdan chiqadi. Uyqu buzilib, kishi serjahl bo‘lib qoladi.

Vitamin V_2 — moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Markaziy asab tizimi, mayda qon tomirlari, jigar, teri va shilliq pardalarning ishlab chiqargan sekret bezlari faoliyatini ishga soladi. Vitamin 2 — karam, bulg‘or qalampiri, pomidor, xren ildizida, donning po‘sti va murtagida, grechixada bo‘ladi.

Har bir kishi organizmiga har kuni tushadigan turli-tuman vitamininga ehtiyoj sezadi. Meva-chevalarda vitamin S (askorbin kislotasi) va vitamin R ko‘p uchraydi. S vitamini yetishmaganda odamlarda uyqusizlik, tez charchash, jahl, shamollash kasalliklariga moyillik tez-tez uchraydi.

Vitamin R esa yuqumli va yuqumsiz kasalliklarga chalinganida foydalidir. Bir kishining S vitaminiga talabining bir kunlik normasi 75 Mg, ya‘ni u 250 gramm mevani har kuni yeb turishi kerak.

Mevalardagi Karotin moddasi Vitamin A o‘rnini bosa oladi. O‘rik, na‘matak, ryabina, olchanning ba‘zi

turlari va oblepixada uchraydi. Karotin qondagi leykositni ko'paytiradi, ko'pgina kasalliklarning oldini oladi.

Inson organizmiga V_9 vitamini, ya'ni Foliyeva kislotasi va K_1 — filloxinon juda zarur. Ularning kishi tanasida yetishmasligi qondagi gemogloblin miqdorini kamaytiradi va e'tiborsizlik natijasida u oqqon kasalligiga olib kelishi mumkin. Bu modda olcha, malina, smorodina, uzum, na'matakda ko'p uchraydi.

Vitaminlar qatorida insonga mikroelementlar — temir, rux, kobalt, yod va boshqa moddalar ham zarur. Mikroelementlarning organizmda yetishmasligi garmonlar ishlab chiqishga — bo'yning o'sishi, jinsiy va boshqa a'zolarining rivojiga, fiziologik jarayonlarga ta'sir etishi mumkin. Temir moddasi olma, behi, olcha, uzum, malina, shaftolida ko'p miqdorda uchraydi.

O'simliklardagi efir moylari o'ziga xos yoqimli hid va o'tkir mazali, uchuvchan organik birikmalardan tashkil topgan aralashmadir. Efir moylari kishi organizmiga har xil dori-darmonlik ta'siriga ega. Balg'am ko'chiruvchi, o't va siydik haydovchi, ishtaha ochuvchi, dizenfeksiya qiluvchi ta'sirga ega. Ovqatga ishlatiladigan o'simliklar ichida efir moyi asosan xushbo'y va ziravor sifatida ishlatiladiganlarning tarkibida uchraydi. Bu o'simliklar me'da shirasi ajralishini kuchaytiradi, ishtahani ochadi va ovqat hazmini yaxshilaydi.

Shunisi qiziqarliki, bundan necha asr ilgari Ibn Sinoning shifobaxsh o'simliklar haqidagi fikr va tajribalari hozirgi kun olimlarining fikr va tajribalariga juda mos keladi.

Ibn Sino: „...Olma zaif me'dani quvvatlantiradi, xamirning ichida pishirilgan olma ishtahani ochadi, gijjalarda va ich ketishda foyda qiladi. Olmaning tarkibida o'rtacha sakson-to'qson foiz suv, 5,15 foiz qand moddasi, 0,57 foiz olma kislotasi, 0,11 foiz limon kislotasi, 1,2 foiz pektin va 0,27 foiz oshlovchi modda bor. Xalq tabobatida olma yordamida surunkali bod, tovush bo'g'ilishi, kamqonlik, oshqozon-ichak yo'lining yallig'lanishi kabi kasalliklar davolanadi“, deydi.

Mahmud Mirzayev:

— Olmaning Toshkent navi tahlil qilinganda qandlar, glyukoza, fruktoza, organik kislotalar, efir moyi, vitamin S-1, V-1, V-2, V-6, E va RR, Karotin, Pektin, bo'yoq, oshlovchi, mineral va boshqa moddalar bor. Olma kamqonlikda, me'da-ichak yo'li va singa kasalliklarini davolashda hamda organizmga umimiy quvvatlantiruvchi eng foydali parhez taom sifatida ishlatilgan.

Olmaning nordon navlari qand kasalligida va semirishga moyillik sezilganida juda foydalidir. Olma tarkibidagi pektin moddalar ichakda zararli mikroorganizmlarning ko'payishiga yo'l qo'ymaydi. Ovqat hazm bo'lishini normal holatga keltiradi va xolesterinning organizmdan chiqib ketishini tezlatadi. Shuning uchun ateroskleroz kasalligining oldini olish va uni davolashda olmaning foydasi kattadir.

Pektin moddalar suvni o'ziga shimib, kishi tanasini suvsizlanishdan saqlaydi. Bu narsa ayniqsa, kolit va ich ketish natijasida organizm juda ko'p suyuqlik yo'qotgan vaqtida muhim ahamiyatga ega. Olmani har kuni iste'mol qilib turish, suv, tuz

almashinib turishining buzilishi, siydik, tosh va podagra kasalliklarida ham foydasi katta. Chunki olma organizmdan oksolat kislotasi tuzlarining chiqib ketishiga ko'maklashadi. Shu tariqa o'rik, uzum, behi, nok, tut, olcha, gilos, shaftoli va boshqa mevali daraxtlar, poliz, sabzavot ekinlarining shifobaxshlik xususiyatlari haqidagi ilmiy ishlar yuzaga kelaveradi.

Yosh avlodni jismonan, aqlan, ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda bu ilmiy ishlarning ahamiyati beqiyos. Bu ishlarga bosh-qosh Mehnat qahramoni akademik Mahmud ota Mirzayevdir.

Odatda yaxshi shogirdga nisbatan xalqda "Ustozdan o'zgan shogird" iborasi qo'llaniladi. R.R.Shreder, Rizamat ota, professor Slonim kabi ustozlarning tarbiyasini ko'rgan Mahmud Mirzayev ustoz-shogirdlik an'anasini o'rniga qo'yganlardan. Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik sohasidagi ilm kishilari, aspirantlar, fan nomzodlari, fan doktorlari Mahmud otadan oq fotiha olib Respublikamizning turli viloyatlarida, muassasalarida ishlab, tajriba orttirib, ilmiy izlanyaptilar. Shogirdlar tayyorlashyapti. Ravshanbek Abdullayev, Mahdi Razzoqov, K.V. Smirnov kabilar shular jumlasidandir.

"Yurish-turish, o'rganish, bilish, bilganlarini saralash va uni boshqalarga yetkaza bilish kerak", deydi Mahmud Mirzayev. "Olimlarimiz ko'p, o'z sohasining professor, fan doktorlari ko'p, afsuski, ba'zilar ko'proq pul chiqadigan joyga o'zini uryapti. Ilmiy ishni tashlab qo'yyapti. O'z ishiga sodiq, kasbiga, ya'ni kelajagiga sodiq kishilarni tanlay bilish kerak", deydi otaxon kuyunib.

Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak, deganlaridek, Mahmud Mirzayev hayoti va ilmiy faoliyati davomida so'zi bilan ishi bir, barcha uchun birdek qayg'uradigan, kamtar, kuyunchak, mehruhahabbatli ustoz sifatida tanildi.

XOTIMA

Rivoyat

Hazrat Ali bozor aylanib yurib, ko'nachining oldida to'xtabdilar.

— Bu nima? — deb so'rabdilar hassalari bilan terilarni ko'rsatib.

— Bu — pul, boylik, baraka, — deb javob beribdi ko'nchi.

Hazrat Ali bozor kezishda davom etib, tikuvchining oldida to'xtabdilar.

— Bu nima? — deb so'rabdilar matolarni ko'rsatib.

— Bu — qiyqim, — debdi tikuvchi.

Shu-shu ko'nchiga boylik-baraka ato etish, tikuvchining boshi qiyqimdan chiqmasin, degan duo ketgan ekan. Niyatiga yarasha bo'lgan ekan-da. Demak, insonning kelajakda kim bo'lishi, uning taqdiri niyatiga yarasha bo'lar ekan.

Ey aziz o'quvchim! Bolalikdan niyatni katta qiling va shu niyat sari intiling! Ajab emas, duo ijobat bo'lsa.

Mahmud Mirzayev bolalikdan katta niyat-orzular qilgan edi. Bitta o'g'il bo'lsam ham o'nta o'g'il o'rnini bosay, deb, ota-onamni rozi qilay deb, bog'

yaratay, el dasturxonini to'kin qilay deb yonib yashab, yonib mehnat qildilar va bu mehnat orqali taniqli olim, akademik, fan arbobi, Mehnat Qahramoni darajasiga erishdilar. Hammamizga ham ana shunday mehnat samarasini ko'rish, el ardog'ida yurish baxti nasib etsin.

MAHMUD MIRZAYEV O'GITLARI

Har bir odam tabiatida yashirin xislat, ochiq xislat bo'ladi. Odamga berilgan noyob xislat — yashirin xislat borki, ularni yuzaga chiqarish tarbiyaga bog'liq.

Biz hayotiy ishlarga berilamizu, yashirin imkoniyatni yuzaga chiqarish borasida beparvolik qilamiz.

Ota-ona o'n bir-o'n besh yoshdagi o'spirinning diliga kira bilishi kerak. Unga halol mehnat, kasb-hunar orqali kun ko'rish zavqini tushuntira bilish va bolaning ichki ruhiyatida nimalar bor, ana shuni ishga sola bilish kerak.

Qadimdan ota-bobolarimiz bolani urmaganlar, so'kmaganlar, ayniqsa oliy tabaqa kishilari tarbiya borasida sira erinmaganlar.

Hozir ham bola imkoniyati va bu imkoniyatni to'la ishga solish — bilimdon avlod yetishtirish ko'p jihatdan ota-onaga bog'liq.

Farzandining fojiasida ota-onaning ham hissasi bor.

Yigit kishi maishatparast bo'lmasligi kerak.

Haqiqiy ustozdan, u qaysi millatdan bo'lishidan qat'iy nazar, yaxshilik kutish mumkin ekan.

Bolalarni tabiatga qiziqtirib o‘stirish kerak. Bu bolani muloyim qiladi. Undagi mehr-oqibat tuyg‘usini mustahkamlaydi. Gul o‘stirish, nihol parvarishlash haqida mikrofilmlar, kitoblar yaratish va ularni maktablarda ko‘rsatish, targ‘ib qila bilish kerak.

Mevaning dori-darmonligi bor.

Halollik, rostgo‘ylikni bolaga singdirish uchun tarbiyachining o‘zi halol, iymonli bo‘lishi kerak. Bola amalda, ya‘ni hayotda nima ko‘rgan bo‘lsa, shuni o‘ziga to‘g‘ri qabul qiladi. Agar siz ming bor halollikdan lof ursangizu, o‘zingiz amal qilmasangiz, bolani ortingizdan ergashtirolmaysiz, ya‘ni tarbiyalay olmaysiz.

Tarbiyani o‘lchovchi, rejalovchi, rivojlantiruvchi inson ongidir.

Har narsadan yaxshilik qidirsangiz, yomonlik yo‘qoladi.

O‘z hayotidan noligan inson hayot va iqbolidan mahrumdir. Nolishga odatlanmang.

Dardingizga davoni o‘zingizdan qidiring. Kasalligingizga sabab o‘z nafsingiz, o‘z xulqingiz va o‘z odobingizdir.

Yoshi ulug‘ kishilar oldida baland ovozda so‘zlashmang, so‘kishmang, urishmang.

Keksalarning oldiga tushib yurmang.

Ongli odam o‘z kamchiligini o‘zi his qila oladi.

Tarbiya — mo‘jiza, billur idish sinsa uni chegalab bo‘lmaganidek, tarbiyadagi qaltis harakatingiz bolaning ko‘nglini sindiradi. Keyin uni chegalab bo‘lmaydi.

Sayohat, ko‘rsatish, o‘rgatish — tarbiyada muhim masala.

Hayotning afzalligi, hosili, barhayotligi — mehnatda.

Tarbiyalovchi xushfe'l, bag'ri keng, bolaparvar, sabr-toqatli, hushyor, kelajakka ishonuvchan va dardkash bo'lishi kerak.

Tarbiyadan muhim, tarbiyadan zarur, tarbiyadan og'ir va kelajakli narsani ko'rmadim.

Odamlar orasida yurgandan keyin uning to'yi, azasida ham koriga yarash kerak.

Men falonchiman, deb aslo o'z imkoniyatlaringga ortiqcha baho berma.

MEHR BULOG'I

“Bir narsadan qattiq kuyinsam, yoki bir narsadan xursand bo'lib ketsam, nimalardir yozgim kelaveradi. Quyilib kelgan satrlarni qog'ozga to'kkim kelaveradi”, deydilar Mahmud domla.

Akademik Mahmud Mirzayev o'zlari haqida kitob yozilayotganini eshitib, behad sevingan va muallifga o'z ko'rgan-kechirganlarini maroq bilan hikoya qilib bergandilar. Ayniqsa, mazkur kitob aziz bolajonlarimizga atab tayyorlanayotganligi u kishiga behad ma'qul tushgandi. Afsuski, umr deganlari bevafo ekan. Siz qo'lga olib, o'qib chiqqan bu ajib umr daftarini ulug' olimimiz ko'rolmadilar. Shu boisdan ham uni yana bir marta diqqat bilan o'qing.

Mahmud Mirzayevning yoshlikdanoq she'riyatga havasmandligini aytib o'tgandik. Quyida Siz keksa qalb tug'yonlari bilan tanishasiz.

Agar sen Suqrotdek buyuk bo'lsang
ham,
Kamsuqum, kamtarin, odmi odam bo'l.
Elingga tobutkash, diliga malham,
Dardiga dardkash bo'l, to'yda hamdam
bo'l.

Inson taftin inson olur, yodda tut,
Dunyoda yaxshilik qolur, yodda tut.
Hayot tor kelsa gar uni keng ayla,
Behuda g'amlarni, tashvishni unut.

Insonni sog' chog'i, do'st tut har mahal,
Qalbini xushnud et bo'lganda kasal.
Hayotda ro'y bermas neki savdolar,
Kin saqlab umringni qilmagin zahar.

Jahon bog'in sohibi bog'bon erur,
Kim nihol eksa gar yurt bo'ston erur.
Va kimki bog'-rog'ni kesib yo'q qilsa,
Joyi jahannamdir, dil vayron erur.

Fe'ling keng, kamtarin va halol bo'lsang,
O'zing baxtiyorsan, avloding shoddir.
Ziqnayu maqtanchoq, yurt zavol bo'lsang,
Ko'rgan kuning zaqqum, shioring doddir.

Yomonlik, yaxshilik orasi ozdir,
Yaxshilik niyating bo'lgani sozdir.
Hayo, ong, saxiylik odilga odat,
Savob daftariga ismingni yozdir.

Mevali daraxtga otadilar tosh,
Yana kamsitarlar hosilini yeb.
U-chi, mish-mishlarga tutib berar bosh,
Odamlarga yana darmon bo'lay deb.

Bo'tam, yasha, o'qi va bardoshli bo'l,
Hayot to'fonida o'zing bardam tut.
Mevali daraxtdek bir kun hosiling,
Ajabmas, elingga ulashsa rizq-qut.

Qaytar dunyo derlar bu hayot,
Neki qilsang, javobi tayin.
Bo'tam, gumroh bo'lma, yaxshiga ergash,
Ezgulik ko'rasan yondoshgan sayin.

Yaxshilik, odillik — hayot javhari,
Jannatliy odamlar odildir abad.
Mag'zi puch, mag'zi to'q kimdir, ajratar,
Odil hakam o'zi asli bu hayot.

Vujudingni ezsa dard-hasrat,
G'ofil yotma, hayotga bir boq.
U bir dengiz, dolg'alarida
Chalkash yotar ming bitta jumboq.
Qaddingni tut, dengizdan zavq ol,
Elga qo'shil, ongingni charxla.
Yuvib ketsin to'lqinlar darding,
Yuragingga qo'nsin jasorat.
Vujudingni ezsa dard, hasrat,
G'ofil yotma, hayotga bir boq.

KO'CHAT QANDAY YETISHIRILADI?

Aziz bolajonlar! Eslab ko'ring-chi, yerga urug' qadaganmisiz? Yoki gul o'stirganmisiz? Nihol parvarishi bilan shug'ullanganmisiz? Yurtimiz shig'il-shig'il hosil beradigan bog'-rog'lar bilan burkanishini orzu qilasizmi? Unday bo'lsa, akademik Mahmud Mirzayevning ko'chat yetishtirishdagi maslahatlariga e'tibor bering.

Xo'sh, ko'chat qanday yetishtiriladi? Masalan, olma ko'chati qanday bunyodga keladi?

Olma urug'dan, qalamchadan va kurtak payvand qilish yo'li bilan ko'paytiriladi. Payvandtag — meva daraxtining poydevori. Meva daraxtlarining kuchli yoki kuchsiz o'sishi, barvaqt yoki kech hosilga kirishi, uzoq umr ko'rishi, noqulay iqlim sharoitiga chidamli yoki chidamsiz bo'lishi ko'proq payvandtaglarga bog'liq.

O'zbekiston sharoitida olma ko'chati yetishtirishda madaniy navlardan (Napoleon, kandil va hokazo) tayyorlangan urug' ko'chatlar kuchli payvandtag hisoblanadi. Olmaning kuchli payvandtaglari asosan urug'idan, kuchsiz va o'rtacha payvandtaglari esa parxish qilish yo'li bilan ko'paytiriladi. Yangi yetishtirilgan olma daraxtlaridan qalamcha tayyorlab, kurtak payvand qilinadi.

Katta-katta madaniy olmazlari bo'lgan xo'jaliklarda to'kilgan olmalardan qoqi qilish vaqtida urug' tayyorlanadi. Urug'i yaxshi yetilgan, kasallik va zararkunandalarga chalinmagan mevalar tanlab olinadi, ular maxsus meva qirqadigan mashinalardan o'tkaziladi. Qirqilgan yupqa olma bo'laklari qutilarga tushadi. Mevadan ajralgan urug' esa qutiga solingan

suvning tagiga cho'kadi. Qutilarga yuz litr suv va bir-ikki kilogramm hisobida osh tuzi solinadi. Suvga tuz solishdan maqsad quritishda qoqi rangini yaxshi saqlashdir. Suv tagiga cho'kib qolgan olma urug'larini bir sutkadan uzoq qoldirmay olish zarur. Aks holda urug'ning unib chiqish kuchi kamayadi.

Mevalar urug'i quritilgandan keyin qopga solinib, bahorgacha bino ichida saqlanadi. Urug'larni sepishdan oldin qumlash kerak, yoki kuzda yerga ma'lum chuqurlikda ko'milib ekiladi. Shunda ular yaxshi unib chiqadi. Qumlash davrida urug'lar yetiladi. Olma urug'i 100—120 kunda yetiladi va ular kuzgacha saqlanib, oktyabr oyining oxiri, noyabr oyining boshlarida yerga sepilganida yaxshi yetiladi. Payvandtag kuzda — oktyabrning ikkinchi yarmidan boshlab yoki erta bahorda — fevral va mart oylarida kurtaklari bo'rtmasdan ekilishi kerak. Ekishdan oldin payvandtaglar yaxshilab tekshiriladi, ildizining shikastlangan qismi kesib tashlanadi. Keyin esa ildizi chirindi aralashtirilib, tayyorlangan suyuqlikka botirib olinadi. Bu suyuqlik unga ozuqa vazifasini o'taydi. Bir kishi belkurakda chuqurcha qazisa, ikkinchisi shu chuqurga ildiz bo'g'zini yerga baravarlab chiqadi. So'ng payvandtag ildizi tuproq bilan ko'miladi. Yozda ko'chatlar 8—10 marta sug'oriladi. Yeri yumshatiladi. Atrofi begona o'tlardan tozalanadi. Avgustgacha payvandtaglarning yo'g'onligi qalamdek (0,8—10) sm bo'lishi lozim. Tuproq sharoiti hamda o'sishiga qarab payvandtaglar 2—3 marta o'g'itlanadi.

Payvandtaglarni kurtak payvand qilishga tayyorlash uchun 4—5 kun avval tanasining yer yuzidan 15—20 sm balandlikdagi qismi o'tkir bog'

pichog'ida yon shoxchalaridan yaxshilab tozalanadi va latta bilan artiladi. Payvand qilinadigan uchastka ketma-ket sug'oriladi.

Kurtak payvand qilish uchun payvand pichog'i, bog' pichog'i, tok qaychi, qayroq, tasma, chelak, polietilen plyonka, «havo» qaychisi, taxtachalar, egiluvchan sim, latta, qalam va hokazolar tayyorlab qo'yish kerak.




Olma qalamchasi va novdasini parxish qilib ko'paytirish past bo'yli payvandtagdan ko'paytirishda, bo'ychan o'sadiganlari payvand qilib o'stirishda foydalaniladi. Past bo'yli olma turlari parhish qilish, qalamchali hamda ildizlari ekilganda ildiz otib ko'karish xususiyatiga ega. Hosil kurtakchalarini aniq bilish va ularga zarar yetkazmaslik darkor.

Ko'p yillik kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, olma iyun oyidan sentyabrgacha kurtak payvand qilinsa, yaxshi samara berar ekan. Ya'ni, bunda kuzgacha ko'chatlarning bo'yi bir metrga yetib qoladi. Iyul oyida qilingan kurtak payvand ayniqsa yaxshi tutadi. Yer yetilishi bilan darhol kurtakpayvand qilishga kirishish lozim. Bu davrda kun issiq bo'lganligi sababli payvandtagi ertalabdan to soat 11 gacha va kunduzi 3—4 dan to qorong'u tushguncha davom ettirish kerak. Payvand polietilen plyonka bilan bog'lanadi. Polietilen tol po'stlog'i, chiptaga qaraganda hozir ko'proq ishlatilmoqda. Meva payvandtaglarga payvand qilingandan keyin yer sug'orilsa uning tanasi yo'g'onlashadi. Bunda agar plyonka bog'langan bo'lsa, u uzilmasdan bemalol cho'zilaveradi, chipta bo'lsa payvandtagi siqib qo'yadi.

Kurtak payvandlangandan 10—12 kun o'tgach ularning tutgan-tutmaganligi tekshiriladi. Kurtak chipta bilan bog'langan bo'lsa, payvand qilingan tomonning qarama-qarshisida o'tkir bog' pichog'ida u albatta bo'shatib qo'yilishi shart. Aks holda shamol ta'sirida payvandlangan joyning ustki qismi sinib ketishi mumkin. Tutgan kurtakning barg bandi shamol ta'sirida yoki qo'l tekkizish bilan yerga tushib ketadi va tutgan kurtak ko'kishroq bo'ladi. Tutmagan kurtakning barg bandi kurtakka yopishib turib qoladi.

Sizga yordam bo'lsin, deb bu jarayonni suratlar orqali ko'rsatdik.

Ko'pgina olma navlari kuz issiq kelib uzoq cho'zilganda kech kuzgacha o'sishda davom etadi. Butoqlar va shoxlarning hammasi daraxtning shox-shabbasini tashkil qiladi. Ular o'suv va hosil shoxlaridan iborat. Hosil shoxlari gulkurtak chiqadi va keyin ulardan meva paydo bo'ladi. Ba'zi olma daraxtining bir yillik novdalari ham gulkurtak chiqaradi. Bu hol ko'pincha tez hosilga kiradigan va har yili hosil beradigan navlarda uchraydi. Olma daraxtining hosil shoxlari uch xil bo'ladi: halqali shox eng qisqa bo'lib, uzunligi 3—5 sm ga yetadi. Ikkinchisi, nayzashox bo'lib, bo'yi 10—15 sm, uchinchisi chiqiqsimon shox bo'lib, bo'yi 15—25 sm keladi. Hosil shoxining uchida meva kurtaklari bo'ladi. Ulardan 4—10 gul chiqadi. Olma daraxtining asosan oddiy va murakkab halqali shoxlari meva tugadi. Ba'zan chiviqsimon shoxlar ham meva tugishi mumkin. Bular daraxtning navi va o'sish sharoitiga qarab 5—15 yil hosil berishi mumkin.



Olmalar turli muddatlarda, ya'ni madaniy navlar anchagacha (6—8 yil), yovvoyilari esa kechroq (10—12 yil) hosilga kiradi.

Olma doim meva turlari ichida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Olma ekilgan joyiga tez moslashib, kurtak yozib barg chiqaradi va bir yilning o'zida bir-bir yarim metrgacha surx novda chiqarib o'sadi. Olma O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan meva daraxtlaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda uning 10 dan ortiq turi uchraydi. Katta yoshdagi olma tuplari 300 kilodan 1000 kilogacha hosil beradi. Olmadan oziq-ovqat sanoatida samarali foydalaniladi.

Tasavvur qiling: yurtimizning bog'-rog'lari, uzumzor, tokzor, olmazorlari. Siz ularda kezib yuribsiz. Jannat mevalari ichida. Ana shu mevalarni yetishtirishda Sizning ham hissangiz bormi? Bir tup ko'chat parvarish qilgan boladan yomonlik chiqmaydi, degandilar Mahmud Mirzayev. Ha, ko'chat eking, parvarish qiling, hosilidan bahramand bo'lganlar Sizga duo aytsalar undan ortiq baxt yo'q dunyoda!

9802

QUTBI NOSIROVA

JANNAT MEVALARI

«SHARQ» nashriyot-matbaa konserni
Bosh tahririyati
2000

Muharrir *A'zam O'ktam*
Rassom *Anvar Musaxo'jayev*
Badiiy muharrir *Xurshid Ziyoxon*
Texnik muharrir *Dina Gabdraxmanova*

Bosmaxonaga 19.09.2000-y.da berildi. Chop etishga 07.XI. 2000-y. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofcet bosma. Shartli bosma tabog'i 4,65. Nashriyot-hisob tabog'i 3,1. Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma № 1075. Bahosi shartnoma asosida.

«SHARQ» nashriyot-matbaa konserni bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy.

BOLALAR KUTUBXONASI

